

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANSH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

RAXMONOVA DILNOZA ROLVONNAZAROVNANING

5140700- TASVITIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI

bakalavr darajasini olish ushun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: "Chizmachilik mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda
didaktik o'yinlarni qo'llash"

Ilmiy rahbar: "TS va MG" kafedrası o'qituvshisi

HAYITBOEV D. J.

Urgansh 2013 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


URGANSI DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI

TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

**“Chizmachilik mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda
didaktik o'yinlarni qo'llash”**

Bajaruvshi: **RAXMONOVA DILNOZA ROLVONNAZAROVNA**

Rahbar:  o'qituvshi **D.J. Hayitboev**

Urganch shahri
2013 yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA VA SAN'AT FAKULTETI
TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YISHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba : Raxmonova Dilnoza Polvonnazarovnaga Universitet rektorining «1-763»-sonli 3.01.2013 buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish ushun "Chizmachilik mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarni qo'llash» mavzusi tasdiqlangan.
2. Kafedra majlisining qaroriga binoan o'qituvshi D. Hayitboev bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.
3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi:
 - a) mavzu mazmunini oshib beruvshi ko'rgazmali vositalar;
 - b) mavzuning elektron shaklda tayyorlangan matni
 - Kirish
 - I bob. Ta'lim va tarbiya rivojining yangi bosqishida o'yin texnologiyalari mohiyati va muammolari
 - II bob. Chizmachilik mashg'ulotlari -pedagogik ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalarni ko'llash uslublari
 - Xulosa
 - Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
4. Bitiruv malakaviy ish ushun ma'lumotlar. Bitiruv malakaviy ishi ikki qism, nazariy va amaliy qismlardan iborat. Nazariy qismining tarkibiy tuzilmasi yuqorida ko'rsatilgan bo'lib, matn elektron variantda o'n ikki ming to'rt yuz sakson so'zdan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy qismi: 55X75 kattalikdagi beshta plenshetdan iborat bo'lib, mavzuga doir ishlanmalar nomoyishi aks ettirilgan.
5. Bitiruv malakaviy ishga mavzu mazmunini oshib beruvshi naqqoshlik na'munalari va boshqa ko'rgazmali vositalarning eskizlari, tajriba-sinov o'qishlari ushun tayyorlangan turli tarqatma va rassomlarning noqqoshlik asarlari ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

| № | Bajarilgan ishning mazmuni | Bajarish muddati |
|----|---|------------------|
| 1 | Mavzuni kafedrada tasdiqlash. | 27.08.12 |
| 2 | Bitiruv malakaviy ish topshirig'i mazmuni va hajmini aniqlash. | 10.09.12 |
| 3 | Maxsus adabiyotlarni o'rganish, loyiha bo'yisha psixologik, pedagogik, metodik va amaliy materiallarni yig'ish. | 24.12.12 |
| 4 | Loyiha bo'yisha tajriba mazmuni, hajmi va tartibini aniqlashtirish. | 14.01.13 |
| 5 | Tajriba ishlarini tashkil qilish va o'tkazish (maktab, kollej,...). | 21.01.13 |
| 6 | Tajriba natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish. | 11.02.2013 |
| 7 | Bitiruv malakaviy ish loyihasining dastlabki eskizlarini tasdiqlash. | 11.03.13 |
| 8 | Eskizlarni to'la tasdiqlash va bitiruv malakaviy ish loyihasi nazariy va amaliy qismlari mazmunini tasdiqlash. | 25.05.13 |
| 9 | Bitiruv malakaviy ish loyihasini bajarishning borishi nazorati va uning nazariy va amaliy qismlarining kafedradagi muhokamasi. | 22.04.13 |
| 10 | Rahbar tomonidan tugallangan loyihaning ko'rikdan o'tkazish. | 13.05.13 |
| 11 | Tugallangan ishni bitiruv malakaviy ish loyihasi rahbari xulosasi va uni himoyaga tavsiyasi bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish. | 27.05.13 |

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

 o'qituvshi **Hayitboev D.**

Bajaruvshi talaba:



Raxmonova Dilnoza .

2012 yil « 26 » 08

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2012 yilda tasdiqlandi
(« _____ »- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:



p.f.d., prof. Ro'ziev E.I.

Urgansh davlat universiteti
Filologiya va san'at fakulteti
“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” kafedrası
“Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” bakalavriat yo`nalishi



Tasdiqlayman
fakultet dekani
dots. G`oipov D.

“29” may 2013 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO`YISHA TOPSHIRIQ

Talaba Raxmonova Dilnoza Polvonnazarovna

1. Ishning mavzusi “Chizmachilik mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda didaktik o`yinlarni qo`llash»

«3» 01 2013 yil universitet rektorining 1-703 sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “27” may 2013 y.

3. Mavzu bo`yisha dastlabki ma`lumotlar beruvshi adabiyotlar ro`yxati

a) Karimov I.A. O`zbekiston siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.

T: O`zbekiston 1995 y.

b). Ro`ziev E.I. Muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi T-2010 yil

v). Ro`ziev E.I. Geometrik va proektsion chizmachilik-2010 yil

e) Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda Chizmachilik to`garagi. Toshkent, 1995.

e) Xasanov R. Maktabda Chizmachilik mashg`ulotlarini takomillashtirish;
Toshkent 1986.

d). Rahmonov I.T. Chizmachilikdan didaktik o`yinlar – T., «O`qituvchi». 1992.

4. Ishning maqsadi: Chizmachilik fanini o`qitishda didaktik o`yinlar orqali o`quvchilarga yangi bilimlar berish, olgan bilimlarini mustahkamlash chizmachilik asoslaridan bilim berish orqali ularning shu fandan ko`nikma va malakalarini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatlarining ochilishiga sharoit yaratishdan iborat.



5. CHizma materiallar ro`yxati:

a) Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir grafik ishlash;

b) 55 x 75 kattalikdagi planshetlarda ko`rgazmali vositalar;

6. Maslahatshilar:  o`qituvshi Latipov R.

katta o`qituvchi  Toganov R

| Bo`limlar | Maslahatshi F.I.SH. | Imzo, sana | |
|---------------------------|------------------------|-----------------|---|
| | | Topshiriq berdi | Topshiriq qabul qildi |
| Nazariy va amaliy qism | Latipov R. | |  |
| Nazariy va amaliy qism | Toganov R | |  |
| | | | |
| | | | |

Ishga taqriz yozuvshi: VPXQTMOI katta o`qituvshisi: P.Narziev

7. Ilmiy rahbar:



o`qituvchi Hayitboyev D.

BMI bajaruvchi talaba:



Raxmonova .D.

Kafedra mudiri:



p.f.d., prof. Ro`ziev E.I.

Mavzu: Chizmachilik mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda didaktik o`yinlarni qo`llash

REJA:

Kirish2-7

I bob. Ta'lim va tarbiya rivojining yangi bosqichida o`yin texnologiyalari mohiyati va muammolari.....8-16

1.1-§ O`yin texnologiyalarining rivojlanish tarixi17-18

1.2-§ O`yin texnologiyalarining o`ziga xos xususiyatlari.....19-20

1.3-§ Pedagogik ta'lim jarayonida o`yinli texnologiyalar.....21-24

II bob. Chizmachilik mashg`ulotlari -pedagogik ta'lim jarayonida o`yinli texnologiyalarni ko`llash uslublari

2.1-§ O`quvchilar faoliyatini shakllantirishda o`yinlarning roli.....25-35

2.2-§ Chizmachilik mashg`ulotlarida o`yinli texnologiyalarni qo`llash uslublari.....36-64

2.3-§ Amaliy ish jarayoni.....65

2.4-§ Tajriba-sinov o`qishlarini tashkil qilish va uning natijalari66-73

Xulosa.....74-76

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....77-78

Ilovalar.....79-87

Kirish

O'zbekiston Respublikasi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlagan va uni amalga oshirib kelmoqda. Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning harakatlantiruvchi kuchi inson shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi.

Mustaqillik, xalq xo'jaligining, fan, madaniyat va san'atning rivojlanishiga keng yul ochib berdi. Ayniqsa u xalq ta'limining rivojlanishiga, birinchi navbatda, oliy ta'limning yuksalishiga keng imkoniyatlar ochdi. Natijada mamlakatimizda ta'limni isloh qilishga, mutaxassislar tayyorlashni jahon andozalariga yaqinlashtirishga erishildi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta'limni isloh qilish uchun huquqiy asos bo'ldi.

Ta'lim sifatiga, qo'yilgayotgan yuqori talablar o'rta umumiy ta'limning hayotiy muammosi va uni rivojlantirish talabi, uning mazmunini interaktivlik, merosiylik va amaliy yo'nalganligi tomonidan rag'batlantiruvchi, yangilovchi kuchga aylandi.

Umumta'lim maktablaridagi zamonaviy ta'lim maqsadi tarixan shakllanib kelgan pedagogik tizim asosida professional tomondan bilimli faol, ijodiy tomonidan mustaqil shaxsni tarbiyalash uchun zamin yaratishdir. Zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy sharoitda ta'lim rolining oshishi, pedagogning an'anaviy vazifalari, ta'lim tarbiya berish va boshqalar bilan bir qatorda ta'limni modernizatsiyalash jarayonida prognozlashtirish, loyihalash va sotsial - madaniy muhitda ta'limning mazmun va jarayoniy tomonlarini tashkil qilish vazifalari ham kelib chiqadi.

Informatsion jamiyatga o'tishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish o'ta muhim vazifaga aylanadi. Bu esa ta'lim modernizatsiya qilinayotgan sharoitda ta'limning zamonaviy texnologiyalarini tadbiq qilish, o'quvchilarda o'z ustida mustaqil ishlash madaniyatini tarbiyalash va talab qilinayotgan ta'lim sifatiga erishish uchun o'ta muhimdir.

Shunday qilib o`quvchilarga ta`lim berishning zamonaviy axvoli, ularning nazariy tomondan tayyorgarligini oshirishning yangi yo`llarini izlash, mustaqil ijodiy mehnatga tayyorgarligi, asosiysi esa vosita va metodlar, shu jumladan boshlang`ich maktab chegarasida vosita va metodlarni izlashdir.

Ushbu ishda biz asosiy diqqatni boshlang`ich maktab Chizmachilikdarslarida o`yin texnologiyalarini qo`llashning samarasi va imkoniyatlariga qaratamiz.

Keyingi o`n yillikda pedagogik o`yin texnologiyalari pedagogik amaliyotga etarli darajada joriy qilindi. V. A. Krivova, L. N. Matrosova, T. M. Sorokina, S. I. Tyunnikovalar ilmiy izlanishlari e`tiborga loyiq bo`lib, ularda o`yin texnologiyalari orqali o`quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlantirishi, mustaqil ish olib borishining faollashuvi ta`kidlanadi.

Keyingi yillarda ta`limning o`yinli shakli eng istiqbolli va eng muvaffaqiyatli yangilik bo`lib namoyon bo`ldi.

Ishchan, didaktik sharoitda maqsadga intilish, faollik, tezkorlik va tafakkur mahsuldorligi, mustahkamlik, xotira tezkorligi, takomillashganlik va o`z kuchi, irodasiga ishonch tuyg`ular shakllanadi.

Didaktik nuqtai-nazardan o`yinli ta`lim shunisi bilan istiqbolliki, u zamonaviy pedagogik nazariyalarning hech biriga qarama- qarshi turmaydi va integratsiyalashgan ta`lim shakllaridan biri bo`lishi mumkin. Shuning uchun ta`lim - tarbiya doirasidagi islohotlar asosida yangi ta`lim tizimiga o`tish uchun chizmachilik o`qituvchisi oldiga yangi vazifalarni, muammolarni qo`ydi. Bunday dolzrab muammolar - chizmachilik o`qituvchisining bilimdonligi oshirish, uni texnologik va metodik jihatdan tayyorlash muammolaridir. Pedagogik, texnologik jihatdan tayyorlash – aqliy rivojlanish, o`qitishni faollashtirish, texnologiya bilan qurollantirish jarayonidir.

Kundan – kunga oshib borayotgan barcha tadqiqotlar ilg`or pedagogik g`oya va tajribalarni o`rganish va Chizmachilik ta`lim - tarbiya jarayoniga tadbiiq qilish yo`llarini izlamokda.

Yangi pedagogik texnologiyalar chizmachilik o`qituvchisidan o`z kasbiga doir bilimdonlik va yangilikka intilishni talab etadi. Pedagogik texnologiyalarni egallash uchun chizmachilik o`qituvchisi yuqori kasbiy bilimdonlik va mahoratiga ega bo`lmog`i zarur. Mening yoshligimdan o`qituvchilikka va ayniqsa chizmachilik yo`nalishiga bo`lgan qiziqishim meni shu oliydargohga etakladi. Mana to`rt yil mobaynida tahsil oldim va bitiruv malakaviy ishimni barcha kafedra professor o`qituvchilari va Ilmiy rahbarim bilan maslahatlashgan holda "Chizmachilik mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda didaktik o`yinlarni qo`llash" mavzusida tanladik. Ushbu bitiruv malakaviy ishimning dolzarbligi shundan iboratki hozirgi davr talabi noan'anaviy o`qitish metodlarini qo`llagan holda mashg`ulotlarning samaradorligini oshirish, o`quvchilarni yoshligidanoq turli xil texnologiyalarni qo`llab dars mashg`ulotlarini olib borishga moslashtirishdan iboratdir.

Chunki, kundan kunga rivojlanib borayotgan hozirgi taraqqiyot bosqichi shuni taqozo etadiki, har bir pedagog hozirgi yoshlarning dunyoqarashi va talabiga mos holda dars mashg`ulotlarini o`tkazishga qaratilgan.

Shunday qilib, muammoning etarli darajada o`rganilmaganligi, dolzarbligi va ilmiy tomondan yangilik ekanligini hisobga olgan holda bitiruv - malakaviy ish mavzusini: Chizmachilik mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda didaktik o`yinlarni qo`llash deb tanladik.

Mavzuning dolzarbligi umumta`lim maktablari o`quvchilarida didaktik o`yinlar orqali o`quvchilarga yangi bilimlar berish, olgan bilimlarini mustahkamlash hamda nazorat kilish mumkinligi hisobga olingan chuqur bilimga ega bo`lishlari va ko`nikmalarini rivojlantirish uchun metodik asoslangan ko`rgazmali qurollar to`plamlarini o`quv jarayoni amaliyotiga joriy etish zaruriyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot ob`ekti- Umumta`lim maktablaridagi chizmachilik fani bo`yicha ta`lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti- Umumta'lim maktablaridagi chizmachilik fani tarkibi va mazmuni, hamda uni o'qitishning shakl va usullari.

Tadqiqot maqsadi- Chizmachilik fanini o'qitishda didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarga yangi bilimlar berish, olgan bilimlarini mustahkamlash chizmachilik asoslaridan bilim berish orqali ularning shu fandan ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatlarining ochilishiga sharoit yaratish.

Tadqiqotning ishchi farazi- Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda agarda:

-bu jarayonning pedagogik shart-sharoitlari va qonuniyatlari aniqlansa hamda asoslangan bo'lsa;

-o'quvchilarga chizmachilik asoslaridan bilim berish uchun chizmachilik kursini o'qitish metodikasi hamda o'quv metodik majmuasi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilsa hamda o'quvchilarning ta'lim olish va mustaqil hayotida foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda joriy qilinsa, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari shakllanadi, grafik tayyorgarlik darajasi ortadi va bu ularning chizmachilik kursi bilan o'zaro aloqador bo'lgan boshqa fanlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir qiladi.

Ishning maqsadi va ilmiy farazidan kelib chiqqan holda tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagicha aniqlanadi.

1. Darslarning hajmi, mazmuni va tuzulishining ilmiy-metodik tahlil qilish orqali o'quvchilarga chizmachilik asoslarini o'rgatishga yo'naltirilgan topshiriqlarni o'quv jarayoniga kiritish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.
2. Chizmachilik kursini o'qitish jarayonida didaktik o'yinlarni o'rgatishga yo'naltirilgan topshiriqlarning mohiyatini, mazmunini va shart-sharoitlarini echib berish.
3. O'quvchilarni chizmachilik asoslarini didaktik o'yinlar orqali o'rgatishga yo'naltirilgan grafik ishlarning mazmunini tahlil qilib chiqish va uni

o`qitish metodikasini ishlab chiqish, hamda o`quv jarayonida tajriba sinovdan o`tkazish.

Tadqiqotning metodologik asosi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning jamiyatni ma`naviy yangilash va isloh qilishning ustivor yo`nalishlari va unda ta`lim tizimining roli va hamda barkamol avlodni tarbiyalash O`zbekiston taraqqiyotining negizi ekanligi to`g`risidagi qarashlari O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risi”dagi qonun davlat va hukumatning ta`lim masalalari bo`yicha me`yoriy hujjatlari, chet el va o`zbek olimlarining pedagogik va psixologiya nazariyasi sohasidagi tadqiqotlari, fanlararo aloqalarning nazariyasi va ularning amalga oshirilishi metodik asos bo`lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida psixologik-pedagogik o`quv va metodik adabiyotlar tahlili pedagogik tajribalarni o`rganish va umumlashtirish o`quv me`yoriy hujjatlar tahlili: mehnat ta`limi, chizmachilik va tasviriy san`at o`qituvchilari va o`quvchilari maqsadli so`rovlar o`tkazish, o`quvchilarning “chizmachilikdan” topshiriqlar bajarishdagi amaliy faoliyat natijalarini o`rganish va tahlil qilish, topshiriqni bajarishga sarflangan vaqt miqdori aniqlangan shakllantiruvchi va aniqlovchi pedagogik tajriba va boshqa usullardan foydalaniladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

Umumta`lim maktablari o`quvchilarning darsdan tashqari mustaqil ishlari uchun chizmachilik kursi bo`yicha topshiriq variantlarining tahlil qilinganligi;

Topshiriqlarning o`quv jarayoniga joriy qilish bo`yich tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni aniqlanganligidan iborat.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati

Chizmachilik kursida didaktik o`yinlar orqali, hamda o`quvchilarning mustaqil grafik ish topshiriqlari orqali o`quvchilarga chizmachilik asoslaridan bilim berish yo`llari asoslab berilganligida.

Ishning amaliy ahamiyati

Chizmachilik kursidan individual grafik ish topshiriqlari umumta'lim maktablari o'quv jarayonida chizmachilik bo'yicha o'qish sifatida, o'quvchilarning ijodiy faoliyati. Fazoviy tasavvurlari, kasbiy ko'nikma va bilimlarni rivojlantirishni jadallashtirishda foydalanish mumkinligidadir.

Muammoning o'rganilganligi

Bolalarning «o'tish davri» shveysariyalik psixolog Jan Piaje (1876—1980) ning fikricha, ularda ob'ekt va umuman borliq haqida mavhum fikrlashning etilishi bilan xarakterlanadi. Fikrlash faoliyatining murakkablashishi bola hayotining barcha tomonlariga, uning hissiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Amerika psixologi **Stenli Xoll** (1884—1923) ta'biri bilan aytganda, mazkur davr bolaning ichki va tashqi ziddiyatlari kuchaygan davri bo'lib, unda o'ziga xoslik vujudga kelad», Boshqa amerikalik psixolog Erik Erikson (1902—1981) «bolada o'z maqsadiga erishish yo'lida «ishbilarmonlik» va «ta'sirchanlik» sezgilari paydo bo'ladi. Bu yoshda mehnatga munosabatning asosi tarkib topadi» deydi.

I bob. Ta'lim va tarbiya rivojining yangi bosqichida o'yin texnologiyalari mohiyati va muammolari

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida ta'lim tarbiya ishlarini yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya kata ahamiyatga ega. Ayni paytda yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan barkamol, tashkilotchi va zukko kadrlarga ega bo'lish uchun, birinchi navbatda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va muhimligini hayot taqazo etmoqda. Shu ma'noda ta'lim tizimida fan-texnika yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborotlardan voqif bo'lish halqaro INTERNET tarmog'idan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonlarini tashkillashtirishda Yangi pedagogik texnologiyalar qo'llash ham alohida ahamiyatga ega. Xo'sh Yangi pedagogik texnologiya o'zi nima?

Ta'lim islohatlari jadal olib borilayotgan bir paytda pedagogik lug'atlarda Yangi pedagogik texnologiya tushunchasi ko'p uchrab turibdi. Ushbu lug'atlarda bu tushunchalarga turli xil yondashuvlar mavjud. Ulardan quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin:

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisini aniqlovchi psixologik pedagogik ko'rsatmalarni majmui bo'lib, o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir. U o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilishi bo'yicha barcha tafsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi.

Demak, yangi pedagogik texnologiyalar, qisqa va lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan usul va vositalarning yig'indisidan iborat.

Iqtisodiy pedagogika bevosita iqtisodiy voqea-hodisalar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi, uchun ham, pedagogika bir qismi bo'lganligi fanda Yangi pedagogik texnologiyalar qo'llaniladi.

Fanda iqtisodiy jarayonlar pedagogik jarayon bilan uyg'unlashtiriladi. Iqtisodiy pedagogika fanini o'qitishda milliy istiqlol mafkurasini yoshlar ongiga singdirish ta'limning turli shakllari orqali quyidagi vazifalarni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi:

- kadrlar tayyorlash miliy dasturi asosida o'quvchi-talabalar ongida milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarda milliy istiqlol mafkurasini g'oyalarini teran aks ettirish;

- maktab, litsey, kollej, institut va universitetlarda mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish va. x.k.

Iqtisodiy pedagogika fanini o'qitish jarayonida yuqoridagi texnologilardan tashqari, yana boshqa Yangi pedagogik texnologiyalar ham qo'llaniladi, ya'ni:

- fanni o'qitishda bugungi kun Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish;

- axborotlar, ommaviy axborot vositalaridan, ro'znoma, jurnallardan unumli foydalanish va dars jarayonida bevosita qo'llash;

- I.A.Karimov asarlaridan foydalanish, ya'ni ularni fanga oid tsitatalar keltirish;

- iqtisodiy bilimlarni kengaytirishda iqtisodiy krossvordlar, chaynvordlarni qo'llab, talabalarni aktivlashtirish;

- fanni o'qitish jarayonida muammoli vaziyatlarni tashkil etib, o'zaro mushohada yuritish;

- iqtisodiy pedagogika fanini o'qitishda talabalar ishtirokida iqtisodiy o'yinlarni uyushtirish;

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan fanni o'qitish jarayonida qo'llash mumkinki, ular Yangi pedagogik texnologiyalarning asosini tashkil etadi.

Ma'lumki. Texnologiya maksimal darajada o'quv jarayoni-o'qituvchi va o'quvchining faoliyati, uning tarkibi, vositalari, usul va shakllari bilan bog'liqdir. Shuning uchun pedagogika texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- 1) kontseptual asosi;
- 2) ta'limning mazmunli qismi-ta'limning umumiy va aniq maqsadlari; o'quv materiallarining mazmuni;
- 3) protsessual qismi-texnologiya jarayoni. Bu esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:
 - o'quv jarayonini tashkil etish;
 - talabalar o'quv faoliyatining shakl va metodlari;
 - materialning o'zlashtirish jarayonining boshqarilishi bo'yicha o'qituvchining faoliyati;
 - o'quv jarayonining diagnostikasi.

Har qanday pedagogik texnologiya ba'zi asosiy metodologik talablarni (ya'ni texnologik mezonlar) qondirish kerak.

Kontseptsiya - har bir pedagogik texnologiya falsafa, psixologik, didaktik, ta'lim maqsadlariga erishishning ijtimoiy pedagogik dalillarini o'z ichiga oladigan aniq ilmiy kontseptsiyaga tayanishi kerak.

Tizimlilik-pedagogik texnologiya tizimining hamma belgilariga, jarayonning mantiqiga, hamma qismlarining bog'liqligiga, butunligiga ega bo'lishi kerak.

Boshqarish - ta'lim jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish, maqsadli diagnostika imkoniyatlarini bosqichma-bosqich uyg'unlashtirish vositalari va uning natijalarini maqsadli uslublar bilan tuzatish imkoniyatlarini ifodalaydi.

Samaradbrlik - zamonaviy pedagogik texnologiyalar aniq sharoitlarda amal qiladi va natijalari bo'yicha samarali bo'lishi, sarflari bo'yicha esa optimal bo'lib, ta'limning standart yutuqlarini ma'lum darajada kafolatlashi kerak.

Takrorlanishi - bu pedagogik texnologiyani boshqa bir turdagi ta'lim muammolarda, boshqa sub'ektlar tomonidan qo'llash imkonini beradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida ta'lim tizimining mazmunini va protsessual komponentlarning birligi (ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodlar, shakl va usullari) haqidagi tushuncha qaror topdi.

Pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish jarayonida ularning komponentlari konservativlikning turli darajalarini yuzaga chiqaradi. Bunda metodlarning kordinal o'zgarishlari shakl va mazmun, maqsadlarning chuqur o'zgartirishlarni olib kelishiga qaramasdan, ta'limning mazmuni ta'lim texnologiyasining muhim qismi bo'lib, uni protsessual qismini ham aniqlay oladi.

Shunday qilib, ta'lim texnologiyasining protsessual va mazmun qismlari bir birini teng ravishda aks ettiradi. Bular orasida yana bir komponent, didaktika vositasining ta'lim mazmunida eng muhim belgilovchi o'rinda darslik turadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ko'p pedagogik texnologiyaning har xil tanlovlari bilan uyg'unlashgan darsliklar paydo bo'ldi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifati yanada oshishining nazariy imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va instrumental mohiyatli xususiyatlari (masalan, maqsadli orientatsiya, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalarning xususiyatlari ta'limini tashkil etish) ga ko'ra quyidagi sinflarga bo'linadi:

1. Qo'llash darajasi bo'yicha quyidagilarga ajratiladi;
 - a) Umumpedagogik;
 - b) Xususiy metodik (predmetli);
 - v) Lokal (modul) texnologiyalar.
2. Falsafiy asosi bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:
 - a) Materialistik;
 - b) Idealistik;
 - v) Dialektik va metafizik;
 - g) Ilmiy va diniy;
 - d) gumanistik va antigumanistik;
 - e) Aitroposofik va teosofik;

j) Erkin tarbiya va majburiy tarbiya.

3. Psixik rivojlanishning bosh omili bo'yicha:

a) Biogen;

b) Sotsiogen;

v) Psixogen;

g) Idealistik texnologiyalar.

Bugungi kunda hammaga ma'lumki, shaxs bu- biogen, sotsiogen va psixogen omillari yalpi qo'shilgan ta'sirining natijasi hisoblanadi, lekin aniq bir texnologiya ulardan birortasiga stavka qilib, uni asosiy deb hisoblashi mumkin.

O'qitishning interaktiv metodlari.

Kadrlar tayyorlash milliy dastrida o'sib kelaetgan avlodni mustakil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi kuyilgan. Ushbu masalani hal etilishi kup jixdtdan o'qitishning interaktiv metodlarini qo'llashga ham bogliq.

Avvalo "interaktiv" tushunchani aniqlashgirib olaylik. "Interaktiv" degan so'z inglizcha "Interact" so'zidan kelib chiqqan " Inter" - o'zaro, "act"-ish ko'rmoq, ishlamoq degan ma'nolarni anglatadi. Demak interaktiv deganda o'zaro ish ko'yish, faoliyat ko'rsatish yoki suhbat tartibda kim bilandir (inson bilan) diolog (muloqot) holatida bo'lish tushiniladi. Shunday qilib, interfaol o'qitish-bu, avvalam bor muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi.

Interaktiv o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishdap iboratki unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin fikrlash, taxdil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega buladilar.

Bilish va o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyati deganda, ularni har birining o'ziga xos aloqada individual hissa qo'shishi, o'zaro bilimlar, g'oyalar va faoliyat usullari bilan almashinishlari tushiniladi. Shu bilan birga, bularning hammasi o'zaro hayri hoxlik va qo'llab - quvvatlash muhitida amalga oshiriladi. Bu esa o'z navbatida yangi bilimlarni olishgagina imkoniyat bermasdan, balki bilish faoliyatining o'zini ham

rivojlantiradi, uni yanada yuqoriroq, kooperatsiya va hamkorlik pog`onalari olib chiqadi.

Darslardagi interaktiv faoliyat o`zaro tushinishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda echishga olib keladigan dialogli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko`zda tutadi. Interaktiv metod bitta so`zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini bartaraf etadi. Dialogli o`qitish jarayonida o`quvchilar tanqidiy fikrlashga, shart-sharoitlarni va tegishli axborotni taxdil qilish asosida murakkab muammolarni echishga, alternativ fikrlarni chamalab ko`yishga, ulab va asosli ravishda qarorlar qabul qilishga, diskussiyalarda ishtirok etishga, boshqalar bilan muloqot qilishga o`rganadilar. Buning uchun darslarda individual, juftli va guruhda ishlar tashkil etiladi, izlanuvchi loyihalar, rolli uyinlar qullaniladi, xujjatlar va axborotning turli manbalari bilan ish olib boriladi, ijodiy ishlar qo`llaniladi.

- Interaktiv o`qitishni tashkilotchilari uchun, sof o`quv maqsadlaridan tashqari quyidagi jihatlar ham muhimdir:
- guruhdagi o`quvchilarning o`zaro muloqatlari jarayonida, boshqalarning qadriyatlarini tushunib etish;
- boshqalar bilan o`zaro muloktda bo`lish va ularning yordamiga muxtojlik zaruratining shakllanishi;
- o`quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Shuning uchun interaktiv o`qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan ikkita asosiy funktsiyalar amalga oshirilishi lozim:

- o`qitishning pragmatik jihati-quyilgan o`quv masalasini echishlikning shartligi;
- tarbiyaviy masalalarni echish - hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a`zolariga yordam ko`rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish.

Ushbu fakti alohida qayd etish lozimki, o`qitishning barcha interaktiv usullarini verbal (og`zaki) va noverbal usullarga ajratish mumkin. Og`zaki usullarga quyidagilar kiradi:

- Vizual: yuz ifodasi, gavdaning holati, xarakterlar, ko`zlar orqali aloqa.
- Akustik: intonatsiya, ovoz balandligi, tembr, nutq tempi, tovush balandligi, nutkiy pauzalar va xakozo.

Verbal usullar orasida quyidagilarni ajratib ko`rsatish mumkin:

- "oxiri ochiq" bo`lgan savollar, ya'ni yagona "tug`ri" javobga emas, balki muammo (savol) bo`yicha turli nuqtai nazarlarni bayon qila olishga yo`naltirilgan savollarni bera olish qobiliyati;
- o`quvchilar bilan muloqotda o`qituvchi tomonidan o`zining nuqtai nazarini xal qiluvchi nuqtai nazar deb emas, balki neytral deb belgilanishi. Bu narsa mashg`ulot paytida o`quvchilarga qo`rqmasdan "to`g`ri" va "noto`g`ri" nuqtai nazarlarini bayon etish imkoniyatini beradi;
- Mashg`ulotning taxlili va o`z - o`zini taxlil qilishga tayyorgarlik. Ushbu holat mashg`ulotlarda nima?, qanday? va nima uchun? sodir bo`lganligini, o`zaro faoliyat qaerda "osilib" qolganini, u nima bilan bog`liq ekanligini, keyinchalik bunday holatlarni ro`y bermaslik uchun nimalar qilish kerakligi va boshqalarni tushunib olishga yordam beradi;
- Mashg`ulotning borishi, uning kulminatsiyasini, natijaviyligini va boshqalar kuzatish imkonini beruvchi yozma xotiralarni yozib borish.

Birinchi bo`limga alohida e`tiborni qaratishni istar edik. O`qituvchining savoli-bu, o`quvchining tafakkurini rivojlantirish yoki bostirish uchun kuchli vositadir. Interaktiv o`qitish nuqtai nazaridan savolning ikki xil turi mavjud.

- o`quvchining fikr doirasini chegaralab, uni bilganlarni oddiy qayta tiklashga keltirib qo`yadigan savollar. Bunday savollar fikrlash jarayonini to`xtatib turishiga xizmat qilib, o`quvchiga uning fikri hech kimni qiziktirmasligini tushinib etishiga olib keladi;
- fikr yuritish, uylash, tasavvur qilish, yaratish yoki sinchiklab taxdil etishga

undovchi savollar. Bunday savollar fikrlarga darajasini kutarish bilan birga, o`quvchilarda ularning ham fikri qimmatga ega ekanligiga ishonch uyg`otadi. quyida savolni to`g`ri ifoda qilish uchun bir qancha tavsiyalar keltiriladi.

1. Savollarni aniq va qisqa quyish lozim.
2. Bitta savol orqali faqat bir narsani surash kerak.
3. Savol mavzu bilan bevosita bog`liq bo`lishi kerak.
4. Savoldagi barcha so`zlar o`quvchiga tushunarli bo`lishi kerak.
5. Har bir savolga bir nechta javob bo`lishiga xarakat qiling.
6. Konkret predmetlardan umumiyga borishga xarakat qiling. Bu holat o`quvchilarni uylashi va savolga javob berishida engillik turdiradi.
7. Faqatgina "ha" yoki "yo`q.", "to`g`ri" yoki "noto`g`ri" degan javoblar beriladigan savollarni berishdan saklaning.
8. O`quvchilarga o`z tajribalariga tayangan holda javob beradigan savollarni bering.
9. O`zining nuqtai nazarini bildiradigan savollarni bering.
10. Quyilgan savolga javob berilganda, o`quvchilardan "Nima uchun shunday deb uylaysiz?" deb surab turing.

Interaktiv usullar bo`yicha o`qitish tashkil etilganda e`tibor berilishi kerak bo`lgan yana bir xrlat, bu vazifaning mazmuni masalasidir. Vazifaning mazmuni o`qitishning an`anviy shakllariga Karaganda boshqacharoq xarakterga ega bo`lishi lozim. Masalan guruhta darslikdagi ma`lum bir paragrafni konspektini olish vazifa sifatida berish maksadiga muvofiq emas, chuyki xdr bir o`quvchi bu ishni o`zi, mustakil bajarishi mumkin.

Amaliyot shuni ko`rsatmokdaki, muammoni nostandart quyilishigina, o`quvchilarni bir-biridan yordam olishga, boshkdlarning xdm fikrini bilishga, natijada esa, guruhding umumiy fikrini shakllantirishga undaydi. Masalan, dasturlashga oid masala echilganda, uni kichik masalalarga bo`lish mumkin. O`quvchilarni ham kichik guruhlariga bo`lish va har biriga kichik masalani echishni va dasturini tuzishni tavsiya etish mumkin.

Dars oxirida guruhlarning echimlari asosida asosiy masala echimini hosil qilish lozim. Buning natijasida bitta dars davomida murakkab masalani echish va unta kuproq o`quvchilarni jalb qilish mumkin buladi. Ushbu usulni hozirgi davrda ta`limda qullanish ko`lami ortib borayotgan "Loyihalar usulining ko`rinishlaridan biri deb hisoblasa buladi. Quyida bir kator interaktiv metodikalarning tavsifi va Soros Fondi mutahassislari tomonidan tavsiya qilingan talqinga yaqin bo`lgan mohiyati keltiriladi.

1.1-§ O'yin texnologiyalarining rivojlanish tarixi

O'yin orqali o'qitish bu - jamiyat tajribalarini barcha ko'rinishlarda bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, emotsional - baholash faoliyatlarida yaratish va o'zlashtirishga yo'naltirilgan shartli tarzda o'qitish shaklidir.

O'yin orqali o'qitish chuqur qadimiy ildizlarga egadir. Ma'lumki o'yinning serqirraligi yaxshi ma'lum bo'lib u ta'lim beradi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi, ommalashtiradi, ko'ngil ochadi va xordiq chiqaradi. Lekin, uning tarixiy vazifalardan biri - ta'lim berishdir. Hech qanday shak-shuxba yo'qki, o'yin dastlabki paydo bo'lgan davrlardanoq haqiqiy hayotiy holatlarni o'zlashtirish maqsadida ifodalovchi boshlang'ich maktab, ta'lim shakli sifatida yuzaga kelgan.

Hali Qadimiy Afinada (eramizdan oldingi VI - IV asrlarda) tashkil topgan ta'lim - tarbiya jarayoniga raqobatchilik (agonistika) ruhiyati singib ketgan edi. Bolalar, o'smirlar, yoshlar gimnastika raqs, tasviriy san'at, sport, nutq bahslarida musobaqalashar, o'zlarining eng yaxshi sifatlarini takomillashtirib o'zligini isbot qilar edilar. Ana o'sha davrlardayoq xarbiy o'yinlar - manevrlar, shtab o'quv mashg'ulotlari va "urush" o'yinlari paydo bo'lgan edi.

X asr maktablari metodlari ichida ritorika bo'yicha musobaqalar ham keng tarqalgan edi. Yoppasiga ta'lim quyidagiga ko'rinishda edi: o'qituvchi o'qir, fikrlash uchun namunalar berar, bahs - muknozoralarni tashkil qilar edi. O'quvchilar yoddan istibohlar keltirishni, xikoya qilishni, sharhlashni, bayon qilishni(ekfraz) badixa (sxedi) qilishni o'rganar edilar

G'arbiy Evropada uyg'onish va islohot davrida T. Kompanella F. Rablelar o'yin tamoyillarini qo'llashga chaqirdilar. Ular bolalar xuddi o'yin o'ynagan kabi osongina barcha ilmlar bilan tanishishlarini istashar edi. XV - XVII asrda Yan Amos Komenskiy barcha "maktab - surgun (katorga)" va maktab - "ustaxona"larni o'yin joylariga aylantirishni taklif qiladi. Uning fikricha xoxlangan maktab har xil o'yinlarga aylanishi, yoshlik, o'smirlik, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda musobaqa shaklida amalga oshirilishi mumkin. Djon Lokk ta'limning o'yinli shaklini qo'llashni taklif qiladi. J. J. Russo: ommaviy foydali mehnat, birgalikdagi

o'yinlar, bayramlardan iborat pedagogik tadbirlar orqali insonni tarbiyalashning fuqarolik vazifalarini qo'ydi. F. Frenbel o'yinni pedagogika ko'rinish sifatida birinchi marta tabaqalashtirdi. O'yin uning pedagogik nazariyasining asosini tashkil qilar edi. U o'yinning didaktikligini sezgan xolda, o'yin bola ta'lim tarbiyasi vazifalarini xal qilishni, unga shakl, rang, hajm xakida tushincha berishini, harakat qilish madaniyatini tarbiyalashni isbotlab berdi. Keyingi izlanishlar o'yin orqali ta'lim berish shakli orqali amalda barcha pedagogik vazifalarni ham qilish mumkinligini ko'rsatdi.

O'yin orqali ta'limning hozirgi davrda oyoqqa turishida, birinchi navbatda ishbilarmonlik o'yinlariga tayanuvchi texnik o'yinlar ushbu harakatining rivojlanishida o'ziga xos rolni o'ynadi, ularning asosini faol o'qitish metodi deb nom olgan metodlarning rivojlanishi tashkil qildi. Ularni qo'llash nazariy jihatdan bir qator kontseptsiyalar, birinchi navbatda faol o'qitish nazariyasi vositasida asoslandi. Birinchi ishbilarmonlik o'yini M. M. Birshteyn tomonidan 1932 yilda ishlab chiqildi va MDX davlatlarida o'tkazildi (M. M. Birshteyn, 1989). Bu metod darhol tan olindi va jadal rivojlandi. Lekin 1938 yilda ishbilarmonlik o'yinlari MDX davlatlarida taqiqlab qo'yildi. Ular 1956 yilda AQSh da Ch. Abt, K. Grinblat, F. Grey, G. Grem, G. Dyupyui, R. Dyuk, R. Pryudom va boshqalar tomonidan yaratilgan dastlabki ishbilarmonlik o'yinlari ta'limda qo'llanila boshlagandan keyin 1960 yildagina qaytadan tiklana boshlandi.

Hozirgi davrda Rossiya, Amerika va boshqa rivojlangan davlatlarda ishbilarmonlik o'yinlari yoki o'yin metodlari qo'llanilmaydigan biron - bir ta'lim muassasi yo'qdir.

1.2-§ O'yin texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari

O'yin ta'limi, o'yinlarga xos belgilar:

- o'qituvchi ko'rsatmalariga ko'ra, lekin uning xukmronligisiz, o'yin jarayondan qoniqish olgan xolda, o'quvchilar xoxishiga ko'ra bajariladigan erkin rivojlanuvchi faoliyat;
- o'z xarakteriga ko'ra, faol badixasimon ijodiy faoliyat.
- Yuqori emotsional, ko'tarinki, musobaqali, raqobatli faoliyat;
- Voqea joyi, bo'shliq va vaqt chegarasi bilan cheklangan faoliyat (V. Yu. Kruglikov 1998).

O'yinning muhim xususiyatlariga, bolalar va kattalar qiyinchiliklarni oxirigi kuchlari qolguncha engishga harakat qiladigan holatlardagi kabi harakat qilish xos deb xisoblaydilar. Yana shunisi ham borki shu darajadagi yuqori faollik deyarli barcha vaqt bolalar tomonidan ixtiyoriy bajariladi. O'yinlardagi oliy darajadagi faollik, uning qatnashchilarida xam yuqori darajada erkinlik xosil qiladi. O'yinda inson psixologik ximoyani chetga suradi, extiyotkorlikni unitadi, o'zi bilan o'zi bo'lib qoladi. O'yin qatnashchisi o'yin vazifalarini echar ekan, ularga berilib ketadi va boshqa tomonga qarshilik qila olmay qoladi.

Ba'zi bir parishonxotirlik xolatlarida insonni u yoki bu qarorga kelishiga engil undash mumkinligi eksperimentlar orqali isbotlangan. Agar inson diqqatini arziyas biron - bir narsada chalg'itilsa, ishontirish ta'siri yanada kuchliroq bo'ladi. (V.V.Boyko) O'yin holatlari orqali o'qitishning yuqori darajadagi samaradorlik sabablari ham balki shundadir.

O'yinli ta'lim texnologiyalari boshqa pedagogik texnologiyalardan :

1. Xoxlagan yoshdagi insonlarga yaxshi tanish oddiy va sevimli faoliyat shakliligi.
2. O'yin holatlarining mazmunli tabiati hisobiga qatnashchilarni o'yin faoliyatga tortuvchi va ularda yuqori darajadagi ruhiy va jismoniy kuch hosil qiluvchi eng samarali faollashtiruvchi vositalardan

biri ekanligi, O'yinda qiyinchiliklar, to'siqlar, psixologik to'siqlar ancha oson echilishi.

3. O'z tabiatiga ko'ra motivatsionligi. U bilish, o'rganish faoliyatiga nisbatan qatnashchilardan tashabbuskorlikni, ijodiy yondashishni, tasavvur, maqsadga intiluvchanlikni talab qilishi.

4. Bilim ko'nikma malakalarni ko'rsatish masalalarini ham hal qilishi.

Jamiyat va tabiat qonunlarini qatnashchilarining chuqur anglashlariga undashi. Ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga imkon beriishi.

Qiziqtirishi, ishontirishi, ba'zi bir xolatlarda davolashga ham imkon yaratishi.

5. Ko'p vazifaliligi, o'yinning insonga bo'lgan ta'sirini qandaydir biron- bir aspekt bilan cheklab bo'lmasligi. Lekin, uning mumkin bo'lgan barcha ta'sirlari bir vaqtda faollashishi.

6. Asosan jamoa, guruhli faoliyat shaklidaligi. Asosida musobaqa aspekti yotuvchi raqib sifatida qatnashishi mumkinligi.

7. So'ngi natija darajalarini hisob- kitob qilinishi. O'yin qatnashchisini xoxlangan (maqtovlar, faxriy yorliq, natijalarni e'lon qilish) psixologik(o'z o'ziga baho berish va uni isbotlash) mukofot va boshqalar uni qoniqtirishi. Yana shunisi borki gurux harakat qilish faoliyatida natijaga umumiy yutuq nuqtai - nazaridan qaralishi, guruh, komanda yutug'i shaxsiy yutuq sifatida qabul qilinishi. O'yinli

ta'lim maqsadning aniq qo'yilganligi va unga muvofiq pedagogik natijalari bilan ajralib turadi.

1.3-§ Pedagogik ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar.

O'yin – o'z xatti- xarakatlarini boshqarish takomillashadigan ommaviy tajribalarni yaratuvchi va ularni o'zlashtirishga yo'naltirilgan shartli xolatlarni yaratuvchi, faoliyat turidir.

O'yin faoliyati qo'yidagi vazifalarni: ko'ngil ochar, muloqat – muomala, o'zini namoyon qilish, davolovchi (terapevtik), tashxez qo'yish, xalqaro kommunikatsiya va ijtimoiylik kabilarni bajaradi.

O'yinli ta'lim metodini, kattalar tajribasini yoshlarga uzatish vositasi sifatida qadimdan qo'llab keladilar, xalq pedagogikasida, maktabgacha va maktab muassasalarida o'yin keng qo'llaniladi. Zamonaviy maktabda Chizmachilikta'lim jarayonini jadallashtirishni faollashtirishga urg'u beriladigan o'yin texnologiyalari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- 1.Chizmachilik darslarida, mavzu, tushinchalar, o'quv fanining bo'limlarini o'zlashtirish uchun mustaqil texnologiya sifatida;
- 2.O'yinli texnologiyalardan ham keng ko'lamliroq texnologiyalarning elementi sifatida;
- 3.Chizmachilik darsi yoki uning qismlari (kirish, mustahkamlash, tushintirish, nazorat qilish, mashqlar va h. q.) sifatida;
- 4.Sinf dan tashqari ishlar texnologiyasi sifatida.

“Pedagogik o'yin texnologiyalari” tushunchasi o'z ichiga har xil pedagogik o'yinlar shaklida pedagogik jarayoni tashkil qilishning metod va usullarining katta guruhini oladi.

Pedagogik o'yinlar ko'zga ko'rinarli xususiyat - asoslanishi aniq mumkin bo'lgan va u ta'lim - o'rganish yo'nalishi bilan xarakterlanuvchi aniq qo'yilgan maqsad va unga mos pedagogik natijalarga egadir.

Mashg'ulotlarning dars shaklidagi holatlarida o'yin texnologiyalarini amalga tadbiq qilish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi: o'quvchilar oldiga didaktik maqsad o'yin vazifasi shaklida qo'yiladi. O'qitish faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi; o'quv materialini uning vositasi sifatida qo'llaniladi, o'quv

faoliyatiga musobaqa elementi kiritiladi, u esa didaktik vazifani o`yin vazifasiga aylantiradi.

Didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o`yin natijasiga bog`lanadi. Chizmachilikta`lim jarayonida o`yin texnologiyalarining o`rni va vazifasi, o`yin va ta`lim elementlarining qo`shilishi ko`p jihatdan o`qituvchining pedagogik o`yinlar vazifalari va ularning tabaqalanishini qanday tushinganligiga bog`liq:

Педагогик ўйинлар



| Faoliyat sohalari bo`yicha | | | | |
|----------------------------|-------------|--------|----------|------------|
| jismoniy | intelektual | mehnat | ijtimoiy | psixologik |



| Pedagogik jarayon xarakteri bo`yicha | | | | |
|---|---|----------------------------------|---|--|
| Bilim beruvchi, trening, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi | O`rganuvchi, tarbiyalovchi, rivojlovchi | Reproduktiv, produktivli, ijodiy | Komunikativli, Tashxezlovchi, psixotexnik, ishga yo`naltiruvchi | |



| Fanlar soxasi bo`yicha | | | | |
|--|--|------------------------------|--|--|
| Matematik, Kimiyoviy, biologik, jismoniy, ekologik | Mexnat, Texnikaviy, Ishlab chiqaruvchi | san`at, teatrlashgan, adabiy | Fizkultura, Sport, Harbiy-amaliy, Sayohlik | Jamiyatshunoslik, Boshqaruvchi, Iqtisodiy, tijorat |



| | | | | |
|-----------------------------|--|--|--|--|
| Buyumlar bilan, Buyumlarsiz | Stolda o`ynaladigan, Xonada o`ynaladigan, Ko`chada | Kompyuter, Televizor, Texnik vositalar | Yordamchi ko`chma vositalar yordamida, | |
|-----------------------------|--|--|--|--|

| | | | |
|--|--------------|--------|-----------------|
| | o`ynaladigan | orqali | Texnik o`yinlar |
|--|--------------|--------|-----------------|

Ishbilarmonlik o`yinlari - texnologiyalarini batafsil ko`rib chiqamiz: ishbilarmonlik o`yinlari kompleks vazifalar, yangi materialni o`zlashtirish, materialni mustahkamlash ijodiy qobiliyatlarni o`stirish va umumta`lim ko`nikmalarni shakllantirish uchun qo`llaniladi. Ular o`quvchilarga Chizmachilik materialini har xil nuqtai nazardan o`rganish va tushinishga yordam beradi.

Ishbirlarmonlik o`yinlarini tayyorlash bosqichi stsenariy tuzishdan, voqea va ob`ektni shartli ifodalashdan boshlanadi. Stsenariy ichiga: ta`limning o`quv maqsadi; o`yin jarayoning umumiy bayoni, voqea mazmuni va ishtirokchilar xarakteristikasi kabilar kiritiladi. Zaruriyat tug`ilib qolgan hollarda o`quvchilar ekspertlarga murojat qilishlari mumkin. Ishbilarmonlik o`yin qatnashchilari oldindan uchrashishlariga ruxsat qiladi. Yozilmagan qoida qur`a bo`yicha tushgan rollarni rad qilinishi, o`yindan chiqishni, o`yinga sust munosabatda bo`lishni faollikni pasaytirishni, xatti - harakat reglamentini buzishni taqiqlaydi.

O`yinni o`tkazish bosqichi

O`yin boshlanishi bilan hech kimning unga aralashishi va uning borishini o`zgartirishiga xaqqi yo`q. Faqat Chizmachilik o`qituvchisi o`quvchilar asosiy maqsaddan chetlashayotgan bo`lsalar ularni to`g`ri yo`lga solib turishi mumkin.

Ta`lim jarayonida o`yin jarayoni rivojining uchta vositasini ko`rsatish mumkin: determinlashgan, beixtiriy, aralash. Ishbilarmonlik o`yinlariga modifikatsiyalanish darajasiga qarab qatnashchilarning har xil rol pozitsiyalarini kiritish mumkin:

a) guruhlardagi ish mazmuniga nisbatan – g`oyalar generatori, yaratuvchi,

- imitator, erudit, tashxezchi, taxlilchi.
- b) tashkiliy xolatlar bo`yicha - tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi.
 - v) yangiliklar bo`yicha - tashabbuskor, ehtiyotkor tanqidchi.
 - g) uslubiy pozitsiyalar bo`yicha - uslubiyotchi, tanqidchi uslubchi;
 - d) ijtimoiy - psixologik nuqtai-nazar bo`yicha - etakchi, maqul keluvchi, qabul qiluvchi, mustaqil, rad qiluvchi.

O`yinlarni tahlil qilish va o`yin natijalarini baholash, ekspertlar chiqishlari, fikrlar almashinuvi, o`quvchilarning o`z qaror va xulosalarini ximoya qilishni nazarda tutadi.

O`yin yakunida Chizmachilik o`qituvchisi erishilgan yutuqlarni bayon qiladi, xatolarni ko`rsatadi, mashg`ulotning yakuniy xulosasini chiqaradi.

II bob. Chizmachilik pedagogik ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalarni ko'llash uslublari.

2.1-§ O'quvchilar faoliyatini shakllantirishda o'yinlarning roli

Ma'lumki, bolalar odatda jim o'tira olmaydilar va doimo harakatda bo'ladilar. Uyin bolalarning tabiiy hamrohi bo'lib, ularga mamnunlik va quvonch baxsh etadi. Bolalar o'yin orqali dunyoni, ya'ni tevarak-atrofni biladilar, mehnat qilishni o'rganadilar, ya'ni tarbiyalanadilar. Ular o'yinlarda o'zlari sevgan qahramonlar qiyofasi va holatiga kirib, rostgo'ylik, ziyraklik, chaqqonlik, bardoshlilik, tadbirkorlik va g'alabaga intilish kabi fazilatlarni namoyish qiladilar.

Bolalarning barcha o'yinlari o'ziga xos jozibaga ega va shuning uchun ular zo'r ishtiyoq bilan o'ynaydilar. Uyin bolalarning organizmida katta o'zgarishlar ro'y berishiga ham sabab bo'ladi. Uyinda vujudga keladigan vaziyatlar bolalardan turli masalalarni tezkorlik bilan hal etishni talab qiladi. Shunday paytlarda bola o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, mushkul ahvoldan qutulishga tirishadi.

Shuning uchun o'yinlar bolalarning o'sishida muhim o'rin tutadi, ularni mustaqillikka undaydi.

Uyin qoidalari asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan, binobarin o'yinning tarbiyaviy ahamiyatiga ko'proq e'tibor berilgan. Shunga ko'ra maroq bilan ko'p o'ynaydigan bolalar zehni o'tkirligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa bolalar jamoa bo'lib o'ynashda bir-birining tartibsizligini, g'irrom o'ynayotganini darrov o'ziga aytadilar. Bu bilan bolalar haqqoniylikka odatlanadilar. Uyin davomida bolalar o'z kamchiliklarini yo'qotishga harakat qiladilar. Boshqalarga nisbatan aqlli chaqqon, kuchli va hozirjavobroq bo'lishga intiladilar. Shu sababli bolalar ko'pincha birgalashib o'ynashni yoqtiradilar va bunday paytlarda ularning o'rtoqlik, bir-birini himoya qilish, jamoachilik kabi fazilatlari rivojlanadi.

Uyin bolalar o'zini o'zi idora qilishi, o'z imkoniyatlarini, bilag'onligini tekshirishining bir yo'li hisoblanib, har xil o'yinlar ularning tarbiyalanishida muayyan darajada yordam beradi.

Uyinlarda bolalar o'zini o'zi tarbiyalashi tabiiy vaziyatda amalga oshadi. Bolalar boshqa faoliyatlarida ko'rsata olmagan tirishqoqlik, talabchanlik, epchillik kabi sifatlarini o'yinlarda yaqqol namoyish qiladilar.

Bolalar o'yinlarda o'zlarini erkin tutadilar va o'zlariga juda yuqori talablarni qo'yadilar, qiyin vaziyatlardan o'zlaricha chiqishga harakat qiladilar. Tabiiyki, o'zicha harakat qilgan, o'ziga ishongan odam har. qanday qiyinchilikni, mushkullikni engishga qodir bo'ladi.

Uyinlarda sho'xlik qilish, ortiqcha hayajonlanish bolalar uchun tabiiy holdir. Shuningdek, ular taqlidchan bo'ladilar, xayolga kelmagan narsalarni o'ylab topadilar. Shuning uchun ular chizmachilikdan didaktik o'yinlar o'tkazilayotganda plakat-chizmalardagi tasvirlar yoki modellarni yuzaki idrok qilib, boshqa narsalarga o'xshatishlari tabiiydir. Bolalarning bu xususiyatlaridan foidalanish maqsadida, detallarni hayotdagi narsalarga taqqoslash orqali ularning mustahkam idrok qilishiga erishish kerak.

Umuman o'yinni go'dak boladan tortib mo'ysafidgacha o'ynashi mumkin. Lekin odamlar o'z yoshiga mos o'rinlarnigina o'ynaydilar. Masalan, bolalar harakatli o'yinlarga, kattalar esa aqliy faoliyatni talab qiladigan o'yinlarga moyil bo'ladilar.

Har xil o'yinlar mavjud va ular xalq pedagogikasining mahsuli bo'lib, o'qituvchilar ham dars jarayonida shu o'yinlarning ba'zi elementlaridan samarali foydalanishlari mumkin.

Ma'lumki, chizmachilik 8—9 sinflarda o'qitiladi va bu yoshdagi bolalar o'zining mazasiga tushungan, ya'ni o'yinqaroq bo'ladilar. Shuning uchun darslarda tinch o'tirib chizmalarni chizishga sabr toqat qila olmaydilar, tezda toliqa boshlaydilar.

Chizmachilikdan sinfdan tashqari ishlar. O'qituvchining maktab-dagi ishi faqat dars o'tish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. O'quv jarayonining asosiy shakli bo'lgan eng mukammal dars ham, *sinfdan tashqari ishlar* bilan to'ldirilishi kerak. O'qituvchi agar dars bilan chegaralanib qolsa fan bo'yicha o'quvchilar

bilishi zarur bo'lgan hamma materiallarni o'rgatishga ulgurmaydi. Ayniqsa, chizmachilikning ba'zi mavzulariga o'quv dasturida juda kam vaqt ajratilgani vaqt tanqisligini yanada keskinlashtiriladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchi shaxsining va imkoniyatlarining to'laroq ochilishiga imkoniyat yaratadi.

Chizmachilik bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning hamma shakllari ixtiyoriylik prinsiplari asosida tashkil qilinishi kerak. Sinfdan tashqari tadbirlar paytida o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari va nazariy bilimlarining shakllantirishga harakat qilish kerak. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalarini e'tiborga olgan holda mashg'ulot mavzusi va mazmuni tanlaniladi.

Chizmachilikdan sinfdan tashqari ishlarning shakl va metodlari. Buning asosiy shakllari sifatida o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirilishga mo'ljallangan to'garak va fakultativ mashg'ulotlar, olimpiadalar, chizmachilikdan qiziqarli o'yin va tanlovlar, dasturning ayrim mavzulariga bag'ishlangan ekskursiyalar, devoriy gazeta va byulletenlar chiqarish, korxonalar va konstruktorlik byurolari xodimlarini taklif qilib ma'ruza va suhbatlar o'tkazish, chizmachilik yoki boshqa fanlardan ham ko'rgazmali qurollar tayyorlash kabilarni ko'rsatish mumkin.

Agar yuqorida aytilgan sinfdan tashqari ishlar qisman bo'lsada amalga oshirilsa, ishonch bilan aytish mumkin-ki, o'qituvchi faoliyati o'quvchilar jamoasining shakllanishi, ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini ortishi va natijada o'quvchilar grafik tayyorgarligi sifati yaxshilani-shiga olib keladi.

Ayrim o'qituvchilar chizmachilikdan sinfdan tashqari ish deb faqat past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni tushunadilar. Bu xato tushunchadir. O'quv dasturidagi asosiy mavzular mazmunini sinfdan tashqari ishlarga o'tkazish mumkin emas. Chunki, bu holda dars ahamiyati pasayib, ayrim o'quvchilarning darsga ma'suliyatsiz yonda-shuvi rag'batlantirilganga o'xshab qoladi. Shuning uchun fanga qiziqishi bo'lmagan va darsda faol qatnashmaydigan o'quvchilarni to'garak ishiga jalb qilish ham maqsadga muvofiq emas. Bunday o'quvchilarga faqat zarur hollarda dars paytida individual yordam ko'rsatish zarur. Individual

mashg'ulotlar o'qituvchi uchun ham foydali bo'lib, u o'quvchining o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlashga yordamlashadi.

Chizmachilik to'garagi. Mashg'ulotlar mavzusi, qatnashchilarni tanlab olish va to'garak faoliyatini har tomonlama o'ylab rejalashtirishi kerak. Bunda to'garakda qanday masalalar yechilishi va qancha o'quvchi qatnashishi imkoniyati borligi aniqlanadi. Umumta'lim maktablarida chizmachilikdan bitta to'garak tashkil qilib, unga quyi va yuqori sinf o'quvchilarini birgalikda jalb qilish kerak. Guruhlarda to'garak mashg'ulotlarini haftasiga bir marta ikki soatdan ortiq bo'lmagan vaqt mobaynida o'tkazish kerak.

Chizmachilik to'garagining yillik ish rejasining namunaviy shakli quyidagicha bo'lishi mumkin.

| Mavzu | Ajratilgan soatlar |
|--|--------------------|
| 1-mashg'ulot O'quvchilarni yoshi va qobiliyatiga qarab guruhlariga ajratish. Mashg'ulotlar rejasi va mavzusi bilan tanishtirish. | 2 |
| 2-mashg'ulot «O'zbekistonda chizmachilikning rivojlanish tarixi» mavzusida suhbat (misollar). | 2 |
| 3-8 - mashg'ulotlar. 8-sinf o'quvchilari uchun Proeksion chizma asoslari bilan chuqur tanishish. Geometrik jismlar proeksiyalari tahlili. | 2 |
| “Kesimlar va qirqimlar” mavzularini texnik detal chizmalarini tuzish misolida chuqur o'rganish. | 2 |
| 9-sinf o'quvchilari uchun Texnik detal ish chizmasini shartlilik va soddalashtirishdan foydalanib bajarish. | 2 |
| Yasashga doir proeksion masalalarni yechishda foydalaniladigan | 2 |

Mashg'ulotlarning xilma-xil bo'lishi o'quvchilar qiziqishini ortti-radi. Sxema, plan, grafik, texnik rasm, shrift kabilarni bajarish bo'yicha o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qilish kerak. To'garak mashg'ulotlarida haddan tashqari qiyin topshi-riqlarni berish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini pasaytiradi. Psixolog N.D.Dobrinin bu haqda «juda oson narsa, qiziqarli emas, haddan ortiq qiyin ham ... qiziqarli emas, lekin qiyin bo'la turib, bajarish mumkin bo'lgani qiyinchilikni yengish imkoniyati borligi sababli zavqlidir» deb yozgan. Chizmachilik bo'yicha qiziqarli misol va topshiriqlar V.A.Rasoxinning «Zanimatelnie zadachi po proeksionnomu chercheniyu», I.Volkovning «Zanimatelnoe cherchenie», A.Pugachevning «200 golovolomok po chercheniyu», I.Rahmonovning «Chizmachilikdan didaktik o'yinlar» kitoblarida berilgan.

To'garak mashg'ulotlarida darslar uchun topshiriq namunalarini tuzish, ko'rgazmali qurollar tayyorlash, maktab xonalari va maydoni intererini jihozlash, turli stendlar tayyorlashni ham bajarish mumkin. Modellashtirish va konstruksiyalashtirish bo'yicha topshiriqlar ham o'quvchilar uchun qiziqarli hisoblanadi.

Tematik kechalar. Maktabda doimiy faoliyat ko'rsatadigan chizmachilik to'garagi bo'lsa, sinfdan tashqari hamma ishlarni jonli va qiziqarli qilib o'tkazish mumkin. Bu kechalarda uning tashkilotchilari to'garak faollaridan tashqari boshqa o'quvchilar ham ishtirok qilishlari mumkin. Masalan, to'garak qatnashchilarining kuchi bilan o'quv yili davomida bir nechta tematik kechalar tayyorlab o'tkazish mumkin.

Bu kechalarda fanga qiziquvchi boshqa o'quvchilarni ko'plab jalb qilish bilan ommaviylikni ta'minlash mumkin. Tematik kechalarda «O'zbekistonda grafikaning rivojlanish tarixi», «Grafikaning turmushda va mehnat faoliyatida ishlatish sohalari» kabi mavzular o'quvchilar uchun qiziqarli bo'ladi. Kechaga

bag'ishlab chizmachilik to'garagi faoliyati bo'yicha stend chiqarish mumkin. Ayniqsa kechalarga kashfiyotchi yoki ratsionalizator ishchilar, injener-texnik xodimlar taklif qilinsa yanada yaxshi bo'ladi.

Qiziqarli o'yinlar. Har xil to'garak mashg'ulotlari bilan bir qatorda chizmachilikdan qiziqarli o'yinlarni o'tkazib borish ham o'quvchilarda fanga qiziqishlarini orttiradi.

O'qituvchi o'quvchilarning zerikkanini sezishi bilan 5—6 daqiqalik o'yin o'tkazishi kerak. Chizmachilikdan o'tkaziladigak o'yinlar ijodiy yondoshishni talab qiladi. Shuningdek o'qituvchi sinfdagi barcha o'quvchilar diqqatini qisqa muddatli o'yinga jalb qila bilishi zarur. Qisqagina o'yinda hamma o'quvchilar qatnasha olmaydilar, ya'ni o'yin shartlariga javob berishga ulgura olmaydilar, albatta. Lekin o'yinda ishtirok etishga, fikrlashga intilishlari ularning butun his-tuyg'ularini ishga soladi. Uyinning qiziqarli, jonli va samarali o'tishi ko'proq o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir.

O'qituvchi bolalar psixologiyasiga aynan muvofiq o'yin elementlaridan foydalansa, Moskvadagi 310-maktab chizmachilik o'qituvchisi V. A. Gerverning aytishicha, har bir darsda ko'zlangan maqsadga erishishi mumkin. Bordi-yu, bu ishga loqayd qarab o'yinlarni sust, zavqsiz o'tkazsa, bolalarning o'yinlarga qiziqishi yo'qolishi, o'yinlar hech qanday samara bermasligi shubhasizdir. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'yinga tayyorlanishda uning bolalarda zavq-shavq uyg'otishini hisobga olishi kerak. Har bir, o'yin bolalar uchun qiziqarli va muayyan maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Uyinda beriladigan savollar ham, unga qaytariladigan javoblar ham juda qisqa, aniq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Didaktik o'yinlar soddadan-murakkabga printsipida, o'quvchilarning aqliy ishlashini faollashtirishga mo'ljallab tuzilgan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilarning tafakkurini, fazoviy tasavvur qilish qobiliyatlarini o'stirishga ham jiddiy ahamiyat berilgan.

Odatda o'quvchilar an'anaviy darslarda olgan bilimlar etarli darajada puxta bo'lmaydi va o'quvchilar ularni muayyan sharoitda tatbiq qila olmaydilar. Masalan

7—8- sinflarda chizmachilik bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarini oliy o'quv yurtida namoyish qila olmaydilar. Chizmachilik darslarida didaktik o'yin-lar qo'llansa, o'quvchilarning bilimi mustahkam bo'ladi, degan umiddamiz.

Chunki o'yinda faol qatnashgan o'quvchi bilimni hayajon va zavq-shavq bilan o'zlashtiradi. Bunday bilim puxta bo'lib, o'quvchining xotirasida ko'p yillar saqlanadi va kezi kelganda o'quvchi o'ni eslaydi va amalda qo'llaydi.

O'yin metodi – mashg'ulotlarning samaradorligini oshirishda ko'proq ijobiy natija beradi. Yangi dastur asosida yaratilayotgan qo'llanma va darsliklarda o'yin va uning elementlari keng joriy etilgan. O'quvchilarning serharakat va o'yingga moyil bo'ladilar. Darsda qo'llaniladigan tasviriy san'atli o'yinlar o'quvchilarning o'quvini o'stiradi, qobiliyatini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi va Chizmachilik darsiga qiziqish uyg'otadi.

Mashg'ulotlarda o'yin texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'quvchining rivojlanishida o'yinlar muhim o'rin egallaydi. O'quvchilar o'sib borar ekan, atrofidagi narsalarni o'rganishlari, ularni boshqarishlari va o'z aqliy, tasviriy san'at, jismoniy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun takrorlanuvchi harakatlarni amalga oshirishlari kerak. O'quvchi o'ynayotgan vaqtida u butunlay o'z muhitiga kirishib ketadi. Uning o'z sezgilari va jismoniy imkoniyatlarini boshqarishi ortadi. O'quvchining ijodkorligi, tili, mantiqiy fikrlashi va tahlil qilish qobiliyati u biron narsani hikoya qilayotganida, cholg'u asbobga jo'r bo'lishida, mos xarakterlarni bajarishida, topishmoqlar topishida, rebuslar yoki boshqotirmalar echganida, interfaol o'yinlar o'ynaganida va tasviriy san'atga

taalluqli yumush bilan band bo`lganida rivojlanadi. O`quvchining o`zi va boshqalar xususidagi tushunchasi u biron qoidalarga amal qilishni o`rganishi, biron maqsad tomon harakat qilganida, g`alaba qilishga bo`lgan shavqini rivojlantirishda va engilganlikni tan olishni o`rganishida, qo`rquv va uyatchanlikni engish hamda zavqlanishni o`rganish orqali shakllanadi.

O`quvchining qiziquvchanligi uning kuzatish, kashf etish va o`rganishga bo`lgan shavqin oshiradi.

O`yinlar turli maqsadlarga yo`naltirgan bo`ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylash maqsadlarida qo`llaniladi.

Bunday o`yinlarni tashkil etish o`quvchilar qobiliyatini diagnostika qilishni takozo qiladi. Shu maqsadda o`quvchilarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi. Chunki har bir o`quvchi u yoki bu rolda o`z imkoniyatlarini sinab ko`ra olish, ya`ni "oddiy" dan murakab darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilish.

Umumta`li maktab bolalari uchun o`yinning kuyidagi turlari mavjud: Mavzuli-rolli o`yinlar, o`yin-mehnat, didaktik o`yinlar, harakatli o`yinlar.

Rolli o`yinlar o`quvchilarning mustaqil yoki kattalar yordamida ijtimoiy tajribani, moddiy ob`ektning hayotiy va badiiy taassurotlar asosida ijodiy qayta yaratish faoliyatidir. Bu faoliyat natijasida bolalar nutqi, fikrlash, xayol surishi va boshqa axlokiy sifatlari tarkib topadi.

Rolli o`yinlar yangi materiallarni o`zlashtirish va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish kabi masalalarni echishga, o`quvchilar uchun muammoning echimini qabul qilishda zaruriy omillarni aniqlashtirishga, o`yin bosqichlarida to`plangan axborotlarni tahlil qilishga imkon tug`diradi.

Barcha rolli o`yinlarda o`quvchi o`z rolini ijro etishi bilan ma`lum bir kasbiy faoliyatni modellashtiradi. Shubhasiz, bunda boshlang`ich shartlarni o`quvchilar mustaqil o`zlashtirib oladilar. Bu erda birgina Chizmachilik mashg`ulot etarli emas,

o`quvchilar rolini uddalashi uchun qo`shimcha manbalardan axborotlarni to`playdilar.

O`yin – mehnat jarayonida bolalar atrof-olam to`g`risida chuqurroq tasavvurga ega bo`ladilar, ish jarayoni va harakatlarning umumiy ko`rinishini o`zlashtiradilar.

Didaktik o`yinlar o`quvchilarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashdan birmuncha afzalliklarga ega. Bu o`yinlar o`qituvchi tomonidan o`quv - tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi.


Ayniqsa chizmachilik fanini o`qitish samaradorligini oshirish va o`quvchilarning aqliy rivojlanishida bunday o`yinlarning ahamiyati juda kattadir.

Quyida didaktik o`yinlarni o`tkazishga doir eng qiziqarli misol keltirib o`tmoqchimiz. Bu o`yin Eng to`g`risini **topish deb nomlanadi**

Uyinning sharti. Detalning yaqqol tasviriga mos bir necha ko`rinishlari orasidan eng to`g`risini topish.

Maqsad. Uquvchilarda chizmalarni o`qish va tahlil qilish ma lakalarini takomillashtirish, standart talabiga doir bilimlarni tarkib toptirish.


Jihozlar. Diametri 250 mm li beshta doira yasaladi va bittasini diametri orqali to`rtga, qolganlari 3 ga bo`linadi. Bittasiga to`rt xil detalning yaqqol tasvirlari chiziladi. Qolgan doiralarga har bir detalning uch xil variantdagi ko`rinishlari chizib chiqiladi va 57- shakl *a*, *b* da ko`rsatilgandek, joylashtirib chiqiladi. Urtasidagi doira qo`zg`almas, atrofdagilari markazidagi o`qi atrofida aylanishi lozim.



O'yinning tafsiloti. O'qituvchi o'rtadagi qo'zg'almas doiraga chizilgan to'rt xil detalning yaqqol tasvirlarini ko'rsatib, atrofdagi aylanadigan doiralarda tasvirlangan uch xil variantdagi ko'rinishlar ichidan eng to'g'ri ko'rinishni topib, o'rtadagi detalning yaqqol tasviriga moslab qo'yish kerakligini aytadi. Bu ishni bajarishda chizmachilikdagi barcha standart talablariga e'tibor berish zarurligini ta'kidlanadi.

Uquvchilar uch xil ko'rinishlar ichidan eng to'g'ri variantni topishga qiynalsalar, ularga standart talabini, ya'ni detalni eng kam ko'rinish orqali tasvirlashga intilish kerakligini eslatib qo'yiladi.

Detallarning yaqqol tasvirlariga mos eng to`g`ri ko`rinishlarni birinchi bo`lib aniqlagan o`quvchi g`olib hisoblanadi.



2.2-§ Chizmachilik mashg`ulotlarida o`yinli texnologiyalarni qo`llash uslublari

Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilinishining eng muhim va asosiy yo`nalishlaridan biri bolalarni etti yoshdan boshlab o`qitishning amalga oshirilishi umumiy majburiy ta'lim sistemasining etti yoshdan boshlanishdir. Bu muhim va mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirish boshlang`ich sinf o`quvchilarning etti yoshli bolalarni psixologik va yosh xususiyatlarini chuqur o`rganishlarini taqozo etadi. Etti yoshli bolalarni o`qitishda maktabgacha tarbiya pedagogikasi qo`lga kiritgan tajribalariga ma'lum darajada amal qilish lozim bo`ladi. Mana shuning uchun ham quyida Chizmachiliko`qituvchilarga qulaylik tug`dirish va amaliy yordam berish maqsadida birinchi sinf bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olingan holda ta'lim jarayonida tasviriy san`atli o`yinlardan foydalanish haqida metodik maslahatlar beriladi. Bu davrda (1- sinf) bolalarning fiziologik va psixologik xususiyati ancha taraqqiy etadi. Ularda atrof-muhitni bilishga qiziqish ortib boradi, ilgari olgan bilim va ko`nikmalaridan o`z faoliyatida foydalana olish qobiliyatlari paydo bo`ladi.

Shunga ko`ra kichik yoshidagi bolalarning Chizmachilikta'lim va tarbiya ishida asosiy faoliyatlaridan biri bo`lib hisoblangan narsa o`yindir. O`yin texnologiya yordamida tashkil qilingan Chizmachilikdarslarda atrof - muhit bilan tanishtirish, ularning kuzatuvchanligi, diqqat- e'tibori, Chizmachilikxotirasini rivojlantirish, vokal- xor malakalarini o`stirish va Chizmachiliko`quvini, savodini kengaytirish, ya'ni aqliy faoliyatlarini kuchaytirish nazarda tutiladi. O`yin mazmuni o`z ichiga asosan quyidagi to`rt omilni oladi:

1.O`yinning vazifasi. 2.O`yin harakati. 3.O`yin qoidasi. 4.O`yin yakuni.

1. Har bir o`yinda ma'lum didaktik maqsadga qaratilgan vazifa qo`yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni ko`zda tutadi. Har bir o`yin bolalardan ma'lum vazifani bajarishni talab qiladi. Bu vazifani bajarish maqsadida

bola o'zining fikrlash qobiliyatini aktivlashtiradi, oldingi olgan bilim va tushunchalarini esga tushirishga harakat qiladi.

Shuni ham eslatib o'tish lozimki, o'quvchilar bilan o'tkaziladigan har bir o'yin ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otishi, o'quvchilar diqqatini jalb qila olishi lozim. O'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa o'quvchilar tushunchasiga mos bo'lmasa, ularni qiynab qo'ysa, u vaqtda o'yin o'z qimmatini yo'qotadi. O'quvchilar qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi, maqsadga erishilmaydi.

Har bir o'yin o'zining ma'lum yakuni natijasiga ega. O'yinda ma'lum kutilgan natijaga erishish esa o'yin qoidasiga rioya qilish, vazifani bajarish orqali amalga oshiriladi. O'yin shunday yakunlanadiki, bolalar o'yindan ma'naviy ozuqa oldadilar, ularga ma'lum darajada bilim beriladi, yangi bir narsaga o'rgatiladi. O'quvchilavr esa har bir qiziqarli o'yindan so'ng o'zlarini xursand, xushchaqchaq sezadilar, ularning ehtiyoji qoniqtiriladi. O'yin oxirida o'yin jarayonida vazifani, o'yin qoidasini yaxshi, namunali bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi, ularning faoliyatlari alohida qayd qilib o'tiladi.

DIDAKTIK O'YINLAR


Didaktik o'yinlar- o'quvchilarning aqliy rivojlanishida, ularni bilishga undashdan birmuncha afzalliklarga ega. Bu o'yinlar o'qituvchi tomonidan o'quv - tarbiyaviy maqsadlar uchun maxsus tashkil etiladi. Shu nuqtai nazaridan aynan chizmachilik mashg'ulotlari ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlardan bir nechtasi haqida to'xtalib o'tamiz.


1. Kim to'g'ri aytadi. Uyinining sharti to'g'ri chiziq kesmasi proektsiyalar tekisligiga nisbatan qan day vaziyatlarda tursa, o'zining haqiqiy uzunligida va nuqta ko'rinishida tasvirlanishini aniqlash.

Maqsad. Uquvchilarning proektsiyalash mavzui bo'yicha o'zlash-tirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, fazoviy tafak-kurini takomillashtirish va ularni atrof-muhitni kuzatishga odatlantirish.

Jihozlar. Sinfdagi hamma o'quvchilarga yaqqol ko'rinadigan kattalikdagi uchta tekislikdan iborat proektsiyalash apparati (1-shakl) va to'g'ri chiziq


kesmasini ifodalaydigan cho`p. Har xil vaziyatdagi to`g`ri chiziqlarning proektsiyalari tasvirlangan pla-kat-chizmalar (2-shakl).





Uyinning tafsiloti. O'qituvchi cho'pni qo'liga olib: «Mana shu cho'pni to'g'ri chiziq kesmasi deb faraz qilasiz va fazoda shunday tutib turasizki, u proektsiyalash apparati tekisliklaridan birida o'zining haqiqiy uzunligida yoki nuqta ko'rinishida tasvirlansin», deydi. O'quvchilardan biri cho'pni olib, proektsiyalash apparati fazosida proektsiyalar tekisliklaridan biriga, masalan, gorizontalar proektsiyalar tekisligi N ga parallel vaziyatda joylashtiradi (3,- shakl) va cho'p N ga o'zining haqiqiy uzunligida proektsiyalanishini ko'rsatadi. Shu payt o'qituvchi cho'p boshqa frontal V va profil W proektsiyalar tekisliklariga qanday proektsiyalanayotganini so'raydi. Uquvchi esa: «O'zining haqiqiy uzunligidan qisqaroq proektsiyalanmoqda», deb javob beradi.

Keyin o'qituvchi mazkur to'g'ri chiziqlarning nomini so'raydi. O'quvchi: «Bular «Gorizontalar chiziqlar», deydi. Shuningdek, nima



uchun to'g'ri chiziq nuqta ko'rinishida proektsiyalanishi ham yuqoridagi kabi savol-javoblar orqali aniqlanadi.

Uyinda eng yaxshi javob bergan o'quvchilar g'olib hisoblanadilar.

Bu o'yin o'quvchilarni birma-bir chaqirib, to'g'ri chiziqning har xil vaziyatdagi ko'rinishlari tasvirlangan plakat-chizmalardan uning vaziyatini proektsiyalash apparatida ko'rsatib berishni so'rash orqali o'tkazilishi ham mumkin.


2. Nuqtaning geometrik o`rnini topish

Uyinning sharti. Detal sirtida joylashgan nuqtaning geometrik o`rnini tez aniqlash.

Maqsad. O`quvchilarga detalning ko`rinishlarini ularning yaqqol tasvirlariga taqqoslab o`qishni, geometrik sirtning yoqlari va qirralarini to`g`ri tahlil qilishni, detalning muayyan erida joylashgan nuqtalarning geometrik o`rinlarini to`g`ri aniqlashni o`rgatish.

Jihozlar. Kattalashtirib chizilgan bir necha detallarning ko`rinishlari va yaqqol tasvirlari, rangi har xil plastilindan yasalgan no`xatdek sharchalar.

O`yinning tafsiloti. O`qituvchi o`quvchilarga: «Men o`ngacha sanayman, shunda, kim detalning yaqqol tasvirida belgilangan nuqtaning geometrik o`rnini detalning ko`rinishlaridan topa oladi», deydi. Uquvchilar o`yinni yaxshi tushunishi uchun o`qituvchining o`zi bitta misol ko`rsatadi. (4- shakl).



Bunda A nuqta detalning chap tomonidagi-qovurg`asi qiyaligining o`rtarog`ida joylashgan. Nuqtaning detal ko`rinishlaridagi geometrik o`rinlarini aniqlash uchun avval ustidan ko`rinishdagi a ni, keyin oldidan (bosh) ko`rinishdagi a' ni va chapdan ko`rinishdagi a'' ni belgilanadi. Bu erda esa bosh ko`rinishdagi a' ni belgilab, so`ngra ustidan va chapdan ko`rinishdagi a va a'' ni aniqlash mumkin.

O`quvchilarga o`yinning maqsadini mana shu misol bilan



tushuntirilgandan keyin, boshqa bir detalning yaqqol tasviriga plastilindan yasalgan sharchani yopishtirib qo'yiladi va bir o'quvchini doskaga chaqirib, detalning ko'rinishlaridagi nuqtaning geometrik o'rinlarini topishi va ularga bir xil rangli sharchalarni yopishtirishi kerakligi aytiladi. O'qituvchi: «Bir, ikki, uch», deb sanay boshlaydi, o'quvchi o'yinning shartini bajarishga qiynalsa, sanashni bir oz sekinlashtiradi. O'quvchi «o'n» deb sa-nalguncha sharchalarni to'g'ri joylashtirishga ulgursa, g'olib hisoblanadi.

Keyingi o'yin taqqoslash deb aytiladi.


Buning uchun har xil geometrik sirtlar alohida-alohida ko'rinishlarda tasvirlangan yordamchi plakat tayyorlanadi (8-shakl).

Uyinning tafsiloti. O'qituvchi sinf doskasiga detal ko'rinishlari tasvirlangan plakat-chizmani ilib qo'yadi va o'quvchilardan: «Mana shu detalning ko'rinishlarida qanday geometrik sirtlar mavjud?», deb so'raydi. Qo'l ko'targan o'quvchi doskaga chaqiriladi. U javob berishda qiynalsa, yordam tariqasida geometrik sirtlar alohida-alohida tasvirlangan qo'shimcha plakatga qarashi mumkin.

O'quvchilar detaldagi geometrik sirtlarni plakatda tasvirlangan sirt-lar bilan solishtirib ko'radilar. Qo'shimcha plakat olib qo'yilgach, o'quvchi-dan geometrik sirtlarning nomlarini aytish va ko'rsatish so'raladi. Uyin shu tartibda davom etadi.



Savolga tez va aniqjavob bergan o'quvchi g'olib deb e'lon qilinadi. Eslatma: Bu o'yinni iloji bo'lsa, detalning asl nusxasiga qarab o'tkazish yanada yaxshi natija beradi. Buning uchun o'quvchilarga geometrik sirtlari aniq ko'rinadigan detallardan bir nechtasi tarqatiladi v.a og'zaki yoki yozma ravishda javob berish kerakligi aytiladi. Bunda o'quvchilar detalning ko'rinishlarini tasvirlashlari shart emas, ammo detaldagi sirtning chegaralari-ni aniq ko'rsatib berishlari zarur.





Kim tez yasaydi


Uyinning sharti. Har xil geometrik sirtlardan iborat detalning ko'rinishlariga qarab uning modelini yasash. Buni loyihalash o'yini deyish ham mumkin.

Maqsad. O'quvchilarning loyihalashga doir ko'nikmalarini fazoviy tafakkurlarini takomillashtirish, chizmalarni o'qish bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash. Ularga detallarni tahlil qilishni o'rgatish.

Jihozlar. Har xil geometrik sirtlarning bir nechtadan, aksariyati parallelepiped tipidagi modellari (9-shakl), mazkur sirtlardan tuzilgan modelning ko`rinishlari (10-shakl).



Uyinning tafsiloti. O`qituvchi: «Kim mana shu geometrik sirt-lardan detallarning modellarini berilgan ko`rinishlariga qarab yasay oladi?, deb so`raydi va o`zi misol tariqasida bitta detalning modelini yasab ko`rsatadi (11-shakl). Keyin qo`l ko`targan o`quvchilarning biridan boshqa detalning modelini tuzishni so`raydi. Uyinda har bir o`quvchiga biror detalning modelini yasash imkoni yaratilishi kerak.



Uyinda eng chiroyli va to'g'ri model yasagan o'quvchilar g'olib hisoblanadilar.

O'qituvchi har xil geometrik sirtlarning modellari asosida texnik detallarning hamma o'quvchilarga etarli modellarini tuzishi va ko'rinishlarini tayyorlashi lozim.

Geometrik sirtlarning modellarini penoplast yoki yog'ochdan yasash qulaydir. Shunda ulardagi teshik, o'yiq, ariqcha ka-bi elementlarni yasash osonlashadi. Ana shu loyihalash o'yinini boshlashdan oldin o'qituvchi tanlangan detalning ko'rinishlarini geometrik sirtlarga ajratib, o'quvchilarning yordami va mehnat o'qituvchisining hamkorligida ularning model larini yasashi mumkin.


Kim to'g'ri tanlaydi

Uyinning sharti. Detaillarning asl nusxasiga yoki yaqqol tasviriga qarab ularning bosh ko'rinishlarini to'g'ri tanlash.

Maqsad. O'quvchilarga detalning ko'rinishlarini to'g'ri tanlashni o'rgatish va shu ishni bajarish ko'nikmalarini singdirish. Ularni tevarak-atrofdagi buyumlarni tuzatishga odatlantirish, texnik detallarning mashina va mexanizmlardagi o'rnini aniqlashga o'rgatish, ularga detallar quyish, shtampovkalash va boshqa usullar bilan tayyorlanishi va ishlov berilishini tushuntirish.

Jihozlar. Har xil tipdagi bir nechta texnik detallarning asl nusxa modellari va boshqa detallarning yaqqol tasvirlari (12-shakl); texnik detal, model va yaqqol tasviri chizilgan detallarning alohida formatlarga tasvirlangan ko'rinishlari (13-shakl).

O'yinning tafsiloti. O'qituvchi detalning yoki modelning asli nusxasiga yoki yaqqol tasviriga qarab uning bosh ko'rinishini to'g'ri tanlash kerakligini aytadi. Doscaga chiqqan o'quvchilar detalning bosh ko'rinishini eskiz tariqasida chizishlari yoki oldin chizib qo'yilgan detalning ko'rinishlari orasidan ko'rsatishlari mumkin. Vaqtni tejash uchun oldin chizib qo'yilgan chizmalar ichidan topib ko'rsatishlari maqsadga muvofiqdir. Lekin o'quvchining chizish mahoratini oshirish uchun doskaga chizdirish ma'qul.



O'yinni boshlashdan oldin o'quvchilar bilan detalning bosh ko'rinishini aniqlash bo'yicha bir necha mashqlar o'tkazish tavsiya etiladi.


O'qituvchi o'yinni g'olib o'quvchilarni e'lon qilish va yo'l qo'yilgan xatolarni umumlashtirish bilan yakunlaydi.


Kim to'g'ri aniqlaydi

Uyinning sharti. Detallarning ko'rinishlari sonini to'g'ri aniqlash.

Maqsad. O'quvchilarga standart talablariga ko'ra detallarni eng kam ko'rinishlarda tasvirlashni, detallarni tahlil qilish-ni; sinchkovlikni, detalning geometrik sirtlarini aniqlashni va chizmalar tuzishni o'rgatish. Ularning ko'rinishlar to'g'risidagi bilimlarini mustahkamlash.

Jihozlar. Uqituvchi bitta, ikkita, uchta ko'rinishlarni talab qiladigan detal va modellarni hamma o'quvchilarga etadigan qilib tayyorlaydi (14-shakl). Uyinni o'tkazishda foydalanish uchun tayyorlangan plakat-chizmalar (15-shakl).






15- шакл


Solishtirib aniqlash

O`yinning sharti. Detallarning ko`rinishlari va yaqqol tas-virlarini bir-biriga taqqoslab o`qish.

Maqsad. O`quvchilarga detallarning ko`rinishlari va yaqqol tasvirlarini o`zaro solishtirish yo`li bilan chizmalarni o`qishni o`rgatish. Ularda analiz, sintez, taqqoslash va fikrlash qobiliyatlarini, chizmalarni o`qish ko`nikmalarini mustahkamlash.

Jihozlar. Bitta A1 formatda to`rttagacha detalning ko`ri-nishlari (18-shakl), o`shanday ikkinchi qog`ozda mazkur detal-larning yaqqol tasvirlari (19-shakl) chizilgan ikkita plakat. Har bir detalning ko`rinishlari burchagiga 1, 2, 3, 4 raqamlari, yaqqol tasvirlariga esa A, B, V, G harflari yozib qo`yiladi. Chizmalar 1 raqamiga A harfi to`g`ri kelmaydigan, ya`ni chalkash-tirilgan holda joylashtiriladi. Bunday plakatlar bir nechtadan bo`lsa, sinfdagi barcha o`quvchilar o`yinda qatnashish imkoniyatiga ega bo`ladilar.






O`yinning tafsiloti. O`qituvchi doskaga ikki o`quvchini chaqirib, ulardan biriga yaqqol tasviri chizilgan A detalning ko`riishlarini topish va doskaga yozib qo`yishni buyuradi. Ikkinchi o`quvchiga esa ko`rinishlari tasvirlangan detalning yaqqol tasvirini topib, sinf doskasiga yozib qo`yishni buyuradi. Har qaysi o`quvchi o`zicha mulohaza yuritadi va, masalan, birinchisi A va 4 bir-biriga mos, ular bitta detalning yaqqol tasviri va ko`rinishi deb, A4 ni yozib qo`yadi. Ikkinchi o`Quvchi ham shunday fikrlab, aytaylik IV ni yozib qo`yadi. Boshqa o`quvchilar ham o`yin shartini ana shu yo`sinda bajaradilar.

O`qituvchi o`yinni yakunlab, to`g`ri topgan o`quvchilarni g`olib deb e`lon qiladi.

Eslatma. Uyindan oldin bitta va ikkita ko`rinishlar orqali tasvirlanadigan detallar bilan mashqlar o`tkazib o`quvchilarda bir oz ko`nikma hosil qilish, shundan keyin ikkita va uchta ko`rinish orqali tasvirlanadigan detallarni qo`llash maqsadga muvofiqdir. O`quvchilarning hamma yozuvlari saqlanishi va noto`g`ri yozganlarning xatolari tushuntirilishi kerak. Vaqtni tejash uchun o`quvchilarga ozgina fursat berish, ya`ni «birdan beshgacha sanayman», deb ogohlantirish lozim.


O`ylab top


Uyinning sharti. Detalning berilgan ikkita ko`rinishiga qarab uchinchi ko`rinishini topish.



Maqsad. O`quvchilarga chizmalarni o`qish va uning ko`rinishlarini tahlil qilishni, ziyiraklik va topqirlikni o`rgatish. Ularning chizmalarni o`qish ko`nikmalarini takomillashtirish.

Jihozlar. Detallarning ikkitadan ko`rinishlari sinfdagi hamma o`quvchilarga yaqqol ko`rinadigan kattalikda tasvirlangan plakat-chizmalar (20-shakl). Har bir bosh ko`rinishlar yoniga uchinchi ko`rinishlarni joylashtirish uchun moslamalar. Mazkur detallarning uchinchi ko`rinishlari chizilib, aralashtirib qo`yiladi (21-shakl). O`quvchilar detallarning uchinchi ko`rinishlarini aniqlash paytida ularga ko`maklashish maqsadida,





shu detallarning yaqqol tasvirlari (22- shakl) yoki modellari tayyorlanib, yashirib qo`yiladi.

Uyinning tafsiloti. Detaillarning ikkita ko`rinishlari tas-virlangan chizma doskaga ilib qo`yiladi. O`qituvchi o`quvchilardan birini chaqirib, chizmalar ichidan bitta detalning uchinchi ko`rinishini tez topib berishni so`raydi. O`quvchi esa chizmalar orasidan detalning ikkita ko`rinishini o`qib, unga mos uchinchi ko`ri-nishni topadi va chizmadagi moslamaga joylashtiradi. Uy in shu tartibda davom ettiriladi. Uy in paytida o`quvchilar detallarning uchinchi ko`rinishlarini topishda qiynalsalar, ularga oldin tayyorlanib yashirib qo`yilgan yaqqol tasvirlari yoki modellari ko`rsatiladi va bular ichidan shu ikkita ko`rinishga mos keladigan detalni ko`rsatish so`raladi. Agar o`quvchi to`g`ri topa olsa, detalning uchinchi ko`rinishini aniqlash osonlashadi.

O`qituvchi ishni tez va to`g`ri bajargan o`quvchilarni g`oliblar deb e`lon qiladi.

O`yinni boshlashdan oldin bir-biridan katta farq qiladigan detallar tanlanib, ularning ikkitadan ko`rinishlari orqali uchinchi ko`rinishlarini topish


mashq qilinsa, keyinchalik detallarning farqi kamaytirib borilsa, detalning uchinchi ko`rinishini topish osonlashadi. Mashq uchun tanlangan detallarni asta-sekin murakkablashtirib borishga e'tibor berish tavsiya etiladi.

Topib moslash


Uyinning sharti. Tarqoq detallarning ko`rinishlarini jamlab, bir butun chizmani tayyorlash.

Maqsad. O`quvchilarning chizmalarni o`qish ko`nikmalarini ta-komillashtirish, ularga detalning ko`rinishlarini tahlil qilishni, topqirlikni o`rgatish, ularning fazoviy tafakkurini o`stirish.

Jihozlar. Detaillarning uchtdan ko`rinishlari chizilib, ularni bir-biridan qirqib, ajratiladi (33- shakl) va hammasini karta singari aralashtirib qo`yiladi. Mazkur detallarning yaqqol tasvirlari (34- shakl) yoki modellari ham tayyorlanib, yashirib qo`yiladi.



Uyinning tafsiloti. O`qituvchi detallarning aralashtirib yuborilgan ko`rinishlarini o`quvchilarga bittadan tarqatadi va ularga har qaysi detalning uchtdan o`zaro mos ko`rinishlarini topishni buyuradi. Uquvchilar esa bir-birining qo`llaridagi chizmalarni ko`rib, bu ishni bajarishga kirishadilar. Agar ular detallarning ko`rinishlarini bir-biriga moslashda qiynalsalar, ularga yashirib qo`yilgan detallarning yaqqol tasvirlari yoki modellarini ko`rsatib, shu orqali izlash mumkinligi aytiladi. Shunda ham ish yurishmasa, o`qituvchi detallarning bosh ko`ri-nishlarini aniqlashda yordam beradi.



34-шакл

Detalning uchala ko`rinishini to`g`ri topgan o`quvchilar, g`olib chiqqan bo`ladilar.


Bu o`yinni boshqacha yo`sinda ham o`tkazish mumkin. Bunda o`qituvchi detallarning bosh ko`rinishlarini ma`lum masofada qa-tor qilib magnitli doskaga terib qo`yadi va qolgan ko`rinishlarini o`quvchilarga tarqatadi. O`quvchilar detallarning yaqqol tasvirlari yoki modellariga qarab, ularning bosh ko`rinishlary ostiga va yoniga qolgan ko`rinishlarini terib chiqadilar.


Kim tezroq chizadi

Uyinning sharti. Detaillarning ko`rinishlari bo`yicha ular-ing texnik rasmlarini chizish.

Maqsad. Uquvchilarning qo`l harakati mahoratini oshirish, ko`z bilan chamalash qobiliyatini o`stirish, fazoviy tafakkurini, texnik rasmlar chizishga doir bilim va ko`nikmalarini shakllantirish.

Jihozlar. Soddaroq detallarning ko`rinishlari tasvirlangan va hamma o`quvchilarga etarli kartochkalar (35-shakl). Detailarning ko`rinishlari ularning texnik rasmlari bilan birgalikda tasvirlangan plakat-chizmalar (36-shakl).






36- шакл


Uyinning tafsiloti. O`qituvchi har qaysi o`quvchiga bittadan detalning ko`rinishlari tasvirlangan kartochkalarni tarqatadi va shu detallarning texnik rasmlarini chizishni buyuradi. O`quvchilar detalning texnik rasmini chizishda qiynalsalar, ularga ko`maklashish maqsadida detal ko`rinishlari va texnik rasmi tasvirlangan plakat doskaga ilib qo`yiladi.

Uyinning shartini tez va yaxshi bajargan o`quvchilar g`olib hisoblanadi.

Bu o`yinni o`tkazishdan oldin o`quvchilarning geometrik sirtlarning texnik rasmlarini (37- shakl) chizish mashqlarini tashkil etish lozim. Keyin ikkita, uchta geometrik sirtlardan iborat detallarning texnik rasmlarini chizish mash-qi o`tkaziladi. Yarim aylana, kvadrat, oltiburchaklarning rasmini chizishda, ularning qaysi proektsiyalar tekisliklarida (38- shakl) joylashganini hisobga olinsa, rasmlarni to`g`ri chizish mumkin.



37-шакл



38-шакл


Kim tez topadi

Uyinning sharti. Detalning ko`rinishlarida etishmaydigan chiziqlarni va yo`l qo`yilgan xatolarni topish.

Maqsad. Uquvchilarga chizmalarda uchrab turadigan kamchiliklarni tuzatishni, chizmalarni sinchiklab tahlil qilishni o`rgatish, ularning chizmalarni o`qish malakalarini oshirish.

Jihozlar. Bir nechta detalning o`quvchilarga bimalol ko`rinadigan chizmalari, yaqqol tasvirlari yoki modellari (39-shakl).

Uyinning tafsiloti. Uqituvchi doskaga detallarning ayrim chiziqlar etishmaydigan ko`rinishlari tasvirlangan plakatni olib qo`yadi va bu plakatlardagi detallarning yaqqol tasvirlarini qog`oz bilan to`sib qo`yadi. So`ngra o`quvchilardan chizmalardagi etishmaydigan chiziqlarni topishni so`raydi, o`quvchilar ularni topishga qiynalsalar, mazkur detallarning yaqqol tasvirlarga qarashni tavsiya etadi. Shunda ham topa olmasalar, ularga yo`naltiruvchi savollar beradi.




Uyin oxirida o`quvchilarning javoblari tahlil qilinadi va eng yaxshi javob bergan o`quvchilar g`oliblar hisoblanadi.

Eslatma. Uyindan oldin o`quvchilar bajargan chizmalardagi tipik xatolarni o`rganish, ularning sabablarini tahlil qilish foydalidir. Uquvchilar bilan chizmalardagi etishmaydigan chiziqlarni aniqlash bo`yicha mashqlar o`tkazish ham yaxshi natija beradi.


Kim tez tuzadi

Uyinning sharti. Detalning yaqqol tasviriga qarab va chizilgan ko`rinishlaridan foydalanib uning kompleks chizmasini tuzish.


Maqsad. Uquvchilarning ko`rinishlar mavzusi bo`yicha olgan




48- шакл



49-шакл



50-шакл



51-шакл


bilim va ko`nikmalarini mustahkamlash, ularning ziyrakligini oshirish.

Jihozlar. Tomonlari 100x100 mm li 4 ta kub yasaladi. Ulardan birining olti tomoniga olti xil detalning yaqqol tas-virlari (48-shakl), ikkinchi kubning tomonlariga mazkur detal-larning ko`rinishlari (49-shakl), uchinchi kubning tomonlariga ustdan ko`rinishlari (50- shakl) va to`rtinchi kubning tomonlariga yondan ko`rinishlari chiziladi (51- shakl). Buning uchun detalning yaqqol tasvirlari va ko`rinishlarinialohida qog`ozlarga chizib, keyin ularni kublarning tomonlarigayopishtirish ham, kubning yoyilmasini tayyorlab, detal ko`rinishlari chizilgandan keyin, kub holiga keltirish ham mumkin. To`rtta kub sig`adigan quticha yasab, uning ichiga kublarni detalningyaqqol tasviri va ko`rinishlari bir-biriga mos kelmaydigan

kilib joylashtirib qo`yiladi (52- shakl).Uyinining tafsiloti. Uqituvchi kubning tomonlarigachizilgan yaqqol tasvirlardan birini o`quvchilarga ko`rsatadi va

qolgan kublarni aylantirib, detalning tegishli ko`rinishlarini topish kerakligini aytadi. Shu tartibda oltita detalning kompleks chizmalari tuzib chiqiladi.

O`qituvchi mana shu ishni tez bajargan o`quvchilarni g`oliblar, deb e`lon qiladi. Bu o`yindan chizmalarni o`qishda ham foydalanish mumkin.



52- шакл

Buning uchun o`qituvchi o`zaro mos uchta ko`rinishni joylashtirib kompleks chizma tuzadi va o`quvchilardan shu detalning yaqqol tasvirini topishni so`raydi. O`quvchilar yaqqol tasvirlar chizilgan kubni aylantirib qarab, detalning ko`rinishlariga mos yaqqol tasvirini topadilar (53-shakl).

Uyin davomida chizmalarning bir nechta kompleksi tuziladi. Shunda barcha o`quvchilarning o`yinda ishtirok etishi ta`minlanadi va o`yin qiziqarli hamda samarali bo`ladi.



53- шакл

O'quvchilarning o'yinga qiziqishini oshirish maqsadida detalning kub tomonlariga chizilgan yaqqol tasvirlari va ko'rinishlarini tez-tez almashtirib turish kerak. Uyinning boshida soddaroq detallarning yaqqol tasvirlari va ko'rinishlaridan foydalanish va keyinchalik ularni murakkablashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

Qanday birikma-tasvirlangan?

Uyinning sharti. Detallarni o'zaro ajraladigan va ajral-maydigan qilib biriktirish usullarini bajarish.

Maqsad. Uquvchilar detallarni biriktirish usullari to'g'risida olgan bilimlarini takomillashtirish. Ularga yig'ish chizmalarini o'qishni, texnik detallar yig'ilgan vaziyatini ular-ning chizmalari orqali idrok etishni o'rgatish.


Jihozlar. Detallarning o'zaro turli usullarda biriktirishi tasvirlangan plakat-chizmalar (94- shakl) yoki asl nusxalari. Uyin qatnashchilariga beriladigan savollar takrorlansa ham, chizmalar turlicha bo'lishi uchun bitta biriktirish usuli-ning har xil turlari tasvirlangan chizmalar.

O'yingning tafsiloti. O'qituvchi plakat-chizmalarda tasvirlangan biriktirish usullaridan birini ko'rsatib, o'quvchilardan «Qanday usulda va nima orqali ikkita detal o'zaro biriktirilgan?» deb so'raydi. Uquvchilardan biri doskaga

ilib qo'yilgan chizmadagi birikmaning usulini aytib beradi. Shu tartibda o'yin davom ettiriladi.

Uyinda tez va to'g'ri javob bergan o'quvchi g'olib deb topiladi.

G'oliblar ko'proq bo'lsa, ular orasidan haqiqiy bilim egasini aniqlash uchun qo'shimcha savollar berish mumkin. Masalan, «Nima uchun shpilkali birikma qo'llanadi? Boltli birikma tatbiq qilinsa bo'lmaydimi? YOKI parchin mix o'rnida vintdan foydalanish mumkinmi?».



2.3 -§Amaliy ish jarayoni

Malakaviy- bitiruv ishimning rejasi kirish ikkita bob xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Bu boblarda Chizmachilik ta'lim rivojining yangi bosqichida o'yin texnologiyalari mohiyati va muammolari, o'yin texnologiyalarining rivojlanish tarixi, o'yin texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlari, tasviriy san'at-pedagogik ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar, umumta'lim maktablarida chizmachilik-pedagogik ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalarni ko'llash uslublari, boshlang'ich sinflar yoshdagi bolalar faoliyatini shakllantirishda o'yinlarning roli, o'yinli texnologiyalarni ko'llash uslublari rasm chizishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Malakaviy- bitiruv ishimni bajarish jarayonida bir nechta manba va adabiyotlardan foydalandim va kerakli ma'lumotlar oldim.

Bitiruv malakaviy ishimning amaliy qismini bajarishda quyidagi materiallardan DVP faneri, reyka, mix, oboy va xar xil qog'ozlardan foydalandim. Eng avvalo 55X75 kattalikdagi planshetlarni tuzatishdan boshladim. Buning uchun 55x75 kattalikda fanerlarni kesib oldim va uning har birining orqasidan reyka bilan mix yordamida planshet tuzatib oldim. Keyin xar bir planshetga vatman qog'ozning orqa tomonini suv bilan ho'llab olib tortdim va qurib tarang tortilgandan keyin har biriga mos xolda bitiruv malakaviy ishim mavzusiga oid rasmlar ishlab chiqdim. Bundan tashqari illyustrativ rasmlardan ham foydalandim. Amaliy ishlarim barchasi grafika uslubida ishlangan. Bundan tashqari bir oz didaktik o'yinlar aks ettirilgan diagramma va sxemalarni ko'rgazmali stend tarzida ishlab chiqdim.

Bunday ko'rgazmalar Chizmachilik o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish ilkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalarda o'qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Bu o'quvchilarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stiradi.

Ushbu stend va ko'rgazmalardan nafaqat Chizmachilik fani o'qituvchisi balki boshqa fanlarni olib borishda ham bermalol foydalansa bo'ladi albatta.

2.4-§Tajriba-sinov o`qishlarini tashkil qilish va uning natijalari

Tajriba-sinov o`qishlari natijalarini tahlil qilish metodikasini biz o`quvchilarning o`zlashtirish darajasini aniq batafsil aniqlash o`zlashtirish darajasini aniq batafsil aniqlash maqsadida har bir faoliyatlarni ayrim ya'ni quydagicha tahlil qilib chiqdik:

1. Topshiriqni tahlil qilish.
2. O`xshash detallar (chizmalari) bilan tanishish.
3. Echim eskizlarini tayorlash.
4. Yaqqol tasvir eskizlarini tayorlash.
5. Optimal variantni tanlay bilish.
6. Chizmani taxt qilish.

1. Topshiriqni taxlil qilish.

Tajriba-sinov o`qishlarining muhim natijasi bo`lib, o`quvchilarda ijodkorlik ko`nikmalarini shakllanishida alohida ahamiyatga ega. Proektsion chizmachilik bo`yicha berilgan topshiriq dastlab o`quvchilarga juda sodda bo`lib tuyulishi va uni tez va hech qanday qiyinchiliksiz bajarish mumkindek tuyulishi mumkin. Lekin o`quvchilar tayyorlagan grafik ishlaridagi detal chizmalarini masshtab va o`lchamlari, standartlari va ishlatilish sohasi kabi ko`plab talablarni hisobga olmasdan topshiriqni bajarishga kirishish hollari dastlab ko`p bo`ldi. Tajriba-sinov o`qishlari davrida o`quvchilarga berilgan grafik ish topshiriqlari oddiydan murakkablashib borish tartibida tuzilgan. Har bir topshiriqni bajarishga kirishishdan oldin uni butun guruh bilan birgalikda tahlil qilib borildi. Bunda har bir topshiriqning tahlili guruh bilan birgalikda muhokama qilinib, dars ohirida umumlashtirib borildi.

Tajriba-sinov o`qishlari boshlanishida topshiriqni yuqori darajada tahlil qila oladigan o`quvchilar faqat 9,2%ni tashkil qilgan bo`lsa, amaliy tadqiqotning ohiriga borib bu ko`rsatkich 52,6%ga etdi.

Shu o`rinda ta`kidlab o`tish lozimki tajriba-sinov o`qishlarining

boshlanishida yuqori va o`rta ko`rsatkichlar asosan 19-son maktab o`quvchilarida uchradi.

2. O`xshash detallar (chizmalari) bilan tanishish.

Chizmachilikda chizilayotgan detalga o`xshash (prototip) detallar bilan tanishish, ularning afzallik va kamchilik tomonlarini, xususiyatlashni, ergonomik va antropometrik hamda zamonaviy talablarga javob berishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Lekin o`qituvchi o`quvchilarning o`zlariga yoqib qolgan detal chizmasi "ta'siriga tushib qolmasligiga" harakat qilishi kerak.

Hozirgacha proektsion chizmachilik bo`yicha umumta`lim maktablari uchun qo`llanmalar yo`qligi, ayniqsa lotin yozuvida chop etilgan adabiyotlar etishmasligi sababli ayrim mavzular bo`yicha o`quvchilarga prototipning ta`siri kuchli bo`ldi.

3. Echim eskizlarini tayyorlash.

Bu proektsion chizmachilik bo`yicha o`quvchilarda ijodkorlik ko`nikmalarini shakllanganligini belgilovchi eng asosiy ko`rsatkichlardan biridir. Loyihalash xususiyatiga ko`ra echim avval xomaki chizma (eskiz)lar bajarilishi kerak. Bunda o`quvchilardan eskizlarni chizmachilik qoidalariga rioya qilib chizish bilan birgalikda, bir-biridan ma`lum darajadagi printsipial farqli echim tayyorlash talab qilinadi. Ushbu ko`rsatkichlarni aniqlashda o`quvchilarning chizmachilikdagi chizmalarni taxt qilish, chiziq turlari, o`lcham qo`yish, shartli belgilash shuningdek, detallarni tasvirlashda perspektiva qonunlariga amal qilish kabi eskiz tayyorlash uchun zarur bilimlar juda past darajada shakllanganligi aniqlandi. Kursni o`rganish, tajriba-sinov o`qishlari davomida yuqorida ta`kidlangan kamchiliklarni bartaraf qilish asosiy dolzarb masala qilib belgilanadi. Echim eskizini tayyorlashda o`quvchilarga uncha murakkab bo`lmagan oddiy detal chizmasi ko`pchilik o`quvchilar uchun ma`lum darajada qiyinchiliklar tug`diradi. Tajriba-sinov o`qishlarining boshlanishidagi past ko`rsatkichni yuqorida ko`rsatib o`tgan sabablar bilan izohlaymiz.

Shu narsa muhimki, o'zining bilimlarini oshirish, topshiriqni sifatli bajarishga qiziqish orqali o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarining shakllanishi muvaffaqiyatli boradi.

4. Yaqqol tasvir eskizlarini tayyorlash.

Berilgan detal shakli va uning forma echimini to'g'ri belgilash ayniqsa 18-son maktab o'quvchilarida tajriba-sinov ishlarining boshlanishida juda past, qoniqarsiz ahvolda ekanligi aniqlandi. Biz buni umumta'lim maktablaridagi tasviriy san'at darslarida o'quvchilarga shaklning xususiyati, fazoviy tasavvur haqida etarlicha bilim berilmaganligi bilan izohlaymiz. Yaqqol tasvir echimini tanlay bilish qobiliyatining shakllanishi uchun tasviriy faoliyat bilan ko'p shug'ullanish hamda ma'lum amaliy ko'nikmalarni talab qilish tufayli bu ko'rsatkich tajriba-sinov o'quvlarining oxirida ham o'quvchilarda qoniqarsiz (26,8%) darajada ahvolda qoldi.

5. Optimal variantni tanlay bilish.

Proektsion chizmachilikda optimal variantni tanlay bilish qobiliyatining shakllanishi boshqa ko'rsatkichlarga nisbatan oson va tez kechdi. Buning sababi o'quvchilar topshiriqni tahlil qilish, o'xshash detallar chizmalari bilan tanishish, echim variantlari eskizlarini tayyorlash yaqqol tasvir variantlari eskizlarini tayyorlash jarayonlarida har bir variant ustida mustaqil mulohaza yuritib detalning afzallik va kamchilik tomonlarini tahlil qildilar. Optimal variantni tanlashda esa oldingi bosqichlarda bajarilgan ishlar va mulohazalarning ahamiyati katta. Tajriba-sinov o'qishlarining boshida bu ko'rsatkich bo'yicha faqat 6,3% o'quvchi yuqori darajaga erishgan bo'lsa, oxiriga kelib 62,4% o'quvchi yuqori darajaga erishdi. Qoniqarsiz darajadagi 23,2% o'quvchilarning hammasi tajriba-sinov o'qishlarining oxiriga kelib qoniqarli (past va o'rta) darajalarga ko'tarildilar.

6. Chizmani taxt qilish.

Bu proektsion chizmachilikni yakuniy bosqichi bo'lib, o'quvchilardan grafik savodxonlik ko'nikmalarining yuqori darajasini talab qiladi. Ushbu

ko'nikmalarni umumta'lim maktablarida shakllantirishning ahvoli zamonaviy talablarga javob bermasligini ko'pchilik tadqiqotchilar ta'kidlab o'tishgan. Bizning tajriba-sinov o'qishlarimizda bu yana bir bor tasdiqlandi. Xususan tajriba-sinov o'qishlarining boshlanishida chizmani taxt qilish bo'yicha o'tkazgan dastlabki nazoratda 66,7% o'quvchining bilimi qoniqarsiz baholandi. Oldingi bandlarda ko'rsatib o'tilgan sabablar tufayli tajriba-sinov o'qishlarining oxirida ham 18,5% o'quvchi qoniqarsiz baho oldi.

Proektsion chizmachilik bo'yicha tajriba-sinov so'rovnoma (1-ilova) o'tkazish bilan tugallandi.

O'quvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazishdan maqsad ularning proektsion chizmachilik kursi va o'zlari bajargan mustaqil topshiriqlar bo'yicha fikrlarini bilish, topshiriqlarni bajarishga sarflanadigan taxminiy vaqtni aniqlash va hakoza iborat edi.

So'rovlarga tajribali sinovda qatnashgan 137 nafar o'quvchidan 130 nafari javob qaytarishdi.

O'tkazilgan so'rovning natijalari quyidagicha bo'ldi:

1. So'rovlarda qatnashgan 12,1% o'quvchi proektsion chizmachilik kursini o'rganish va topshiriqlarni bajarish zarur emas deb hisoblaydilar. 14,7% o'quvchi o'z munosabatlarini aniqlashda qiynalishdi. 74,2% o'quvchi proektsion chizmachilik kursini o'rganish zarurligini, topshiriqlarni bajarish ular uchun qiziqarli bo'lganini bildirishdi.
2. So'rovlarda qatnashgan 28,2% o'quvchi mustaqil topshiriqlarni bajarishga doir nazariy ma'lumotlar va topshiriqlar hajmini kengaytirishni zarur deb hisoblaydilar. 18,8% o'quvchi mustaqil topshiriqlar hajmi (soni)ni kamaytirishni taklif qildilar. 12,3% o'quvchi proektsion chizmachilik kursini to'g'arak mashg'uloti sifatida o'quvchilarning o'rganishini zarur deb hisoblaydilar.
3. 74,1% ya'ni 112 nafar o'quvchi proektsion chizmachilik kursida:
 - a) o'zlarining individual qiziqishlarini hisobga olgan holda topshiriq

turini tanlash; b) topshiriqlarni bajarishga ijodiy yondoshib o'z qobiliyatlarini namayon qilish; v) turmushda foydalanish imkoniyati mavjudligi o'zlariga yoqqanligini qayt qilishdi.

4. 28,6% o'quvchiga yassi detallarning chizmalarini chizish va berilgan ikki proektsiya bo'yicha uchinchi proektsiyani topish bo'yicha topshiriqlar ko'proq yoqdi. 17,6% o'quvchiga yaqqol tasvirlar hosil qilish bo'yicha topshiriqlar qiziqarli bo'ldi. 9,4% o'quvchiga proektsion chizmachilik kursi ma'qul bo'lmadi.

O'quvchilar javoblaridan ko'rinib turganidek, ularning anchagina qismi, ya'ni 24,4% o'quvchi nazariy ma'lumotlar hamda topshiriqlar namunalari sonini ko'paytirishni taklif qilishgan.

Chizmachilik bo'yicha tadqiqot ishimizda zarur materiallarni sodda, qisqa bayon qilishga intildik. Ushbu yo'nalishda o'quvchilarda qiyinchiliklarning paydo bo'lish sabablarini tubandagicha deb hisoblaymiz:

1. Umumta'lim maktablarida chizmachilik kursini o'rgatishga deyarli e'tibor qilinmasdan, boshqa fanlarda esa, bu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish nazarda tutilmaganligi;
2. O'quvchilar uchun metodik qo'llanmadan boshqa adabiyotlarning deyarli yo'qligi;
3. O'quvchilarda adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmasining yo'qligi;

Bunday ahvolning yuzaga kelishiga bizningcha quyidagilar sabab bo'lgan:

1. Umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi va tasviriy san'at fanlarida chizmachilik elementlari deyarli o'rgatilmaydi;
2. Uzoq yillar davomida umumta'lim maktablari mustaqil, ijodiy fikrlovchilarni emas, "ijrochi"larni tayorlab kelganligi sababli o'quvchilar individual topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashishda qiynaldilar.

Natijada uzoq yillar davomida o'quvchilarda ijodkorlik va mustaqillik

ko`nikmalarini shakllantiruvchi darsliklar yaratilmadi. Hozirgi darsliklarda ham bu soxaga e'tibor kam.

Biz ushbu tadqiqot ishini tayorlash jarayonida mavjud kamchiliklarni hisobga olib, boshqa fanlarda o`rganiladigan materiallarni takrorlamaslikka harakat qildik.


Tajriba-sinovning asosiy maqsadlaridan biri taklif qilayotgan tadqiqot ishining II-bobida asoslangan kontseptual talablarga javob berishini aniqlashdan iborat edi. Tajriba qatnashchilarining so`rovnoma savollariga javoblari tadqiqotning ijodiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni qayd qildilar:

1. Har bir topshiriq individualligi, ya'ni topshiriq variantini o`quvchi o`z qiziqishini hisobga olib tanlash imkoniyati.
2. Masalani echishda ijodiy yondashish imkoniyati.
3. O`z individual xususiyatlarini ko`rsata bilish imkoniyati.
4. Turmushda, ish va o`qish faoliyatida foydaliligi.
5. Kasbiy, estetik va gumanitar tarbiya berishi.

Bu sifatlarning hammasi bajarilgan topshiriqlarni tahlil qilishda ham tasdiqlandi. Tajriba-sinovda qatnashgan umumta'lim maktablari o`quvchilari grafik ishlarni bajarishda narsaning ikkita proektsiyalar tekisligiga proektsiyalash (35-shakl), narsaning uchta proektsiyalar tekisligiga proektsiyalash (36-shakl), berilgan ikki proektsiya bo'yicha uchunchi proektsiyani chizish va yaqqol tasvirlarni hosil qilish kabi mustaqil ishlarni katta qiziqish bilan bajardilar o`quvchilarning ko`pchiligi shu bitta topshiriq o`rniga 2-3 tasini belgilangan muddatda bajarishga harakat qilishdilar.

O`quvchilar qayd qilishicha ular uchun eng murakkab topshiriqlar aksonometrik proektsiyalar bajarish kabi topshiriqlar bo`ldi. Bu topshiriqlarni bajarishda o`quvchilar ko`pincha ko`rsatilgan namunalar chegarasidan chiqishga qiynaldilar. Biz buni umumta'lim maktablarida o`quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirish, ularda masala echishga ijodiy yondashish ko`nikmalarini shakllantirish talab darajasida emasligi bilan izohlaymiz.

O'quvchilrni berilgan aksanometrik proektsiyaga mos tasvirlarni topish ko'proq qiziqirdi. Shu yo`nalishda ular bajargan original echimlar ham ko'proq bo'ldi.



37 a-shakl Aksanometrik proektsiyaga mos tasvirlarni topish

Tajriba natijalari bo'yicha quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Chizmachilikdan tadqiqot ish bo'yicha tajriba-sinov o'qitishlari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini ochishga ko'maklashadi va o'zaro bog'liq boshqa fanlarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir qiladi.
2. O'quv elementlari va uning tarkibiy qismlari orasidagi aloqalarni o'quvchilarga mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayonida ochib berilishi ularda tartibli, tugal bilimlarining shakllanishiga, shuningdek mantiqiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishiga ko'maklashadi.
3. Chizmachilik bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari sayoz bo'lganligi sababli, boshida o'quvchilarga beriladigan topshiriqlar og'irlik qilishi mumkin.

Shuning uchun ushbu metodikadan foydalanishda uning hajmi va mazmunini har bir maktab o'z imkoniyatlarini hisobga olgan holda alohida belgilaydi.

4. Tadqiqot ish bo'yicha ish samaradorligi, uning vazifalari va maqsadlarini o'quvchilarga to'g'ri tushuntirishga ko'p jihatdan bog'liq.
5. Tadqiqot ish o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlariga mos kelishi, shu xususiyat bo'yicha bajarilgan topshiriqlar hamda so'rovnoma savollariga qaytarilgan javoblarida tasdiqlanadi.
6. Tadqiqot ishini ommaviy shaklda joriy qilib, ta'limning asosiy maqsadlarini aniqlash uchun o'quv materialini oldindan metodik tayorlash zarur bo'ladi. O'zining ko'p mehnat talab qilishi va murakkabligi sababli bu ish oddiy o'qituvchilarning vazifasiga kirmaydi. Ularning proektsion chizmachilikdan o'quv metodik majmua bilan ta'minlash bo'yicha ma'sul tashkilotlar va shaxslar shug'ullanishi kerak.

Xulosa

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o'quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatining asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatini rivojlantiruvchi va ijtimoiylash maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yin jarayonida tortishish, musobaqalanish (bahs–munozara yuritish), ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur.

O'yin o'tkazish chog'ida “buyurtmachi” rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirlarning bajarilish sifatiga va bu tadbirlarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhning hamda alohida talabalarning rol ijro etishi bahosi chiqariladi.

Bunday o'ynlarni tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchi qobiliyatini diagnostika qilishni takozo qiladi. Shu maqsadda o'quvchilarni rol ijro etishlarini almashtirib turish ham tavsiya etiladi. Chunki har bir o'quvchi u yoki bu rolda o'z imkoniyatlarini sinab ko'ra olish, ya'ni “oddiy” dan “KV boshlig'i” darajasidagi rollarni ijro etishga imkoniyat berilish.

Bahs muammoni muhoqama qilish jarayonidir. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiqot qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati (raqibi) ning fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyas

O'quvchilarning o'quv faoliyati shaxsiy mohiyati sifatida qabul qilinadigan o'quv maqsadlariga ongli ravishda qaratilgan bo'lishi lozim. D.B. Elkonin ta'kidlaydiki, o'quv faoliyati eng avvalo shunday faoliyatki, uning natijasida o'quvchilarning o'zida o'zgarish yuz beradi. Bu faoliyat o'z holicha o'zgarishdir. Uning mahsuli, sub'ektning o'zida yuz bergan o'zgarishlardir.

O'quv faoliyatining asosiy motivlari bu- ichki o'quv- bilish motivlaridir. O'quv faoliyatining eng muhim motivatsiyasi esa o'quvchilarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi va moyilligidir.

O'quvchining Chizmachilik o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonch hissini hosil qilishi lozim.

Bunday vazifalarni hal qilishda Chizmachilik o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalarda o'qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi. Bu o'quvchilarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini shu bilan birga fazoviy tasavvurlarini o'stiradi. **Fazoviy tasavvur** – chizmachilik o'qitish metodikasida fazoviy tasavvur deganda ko'pincha tasvirlanayotgan ob'ektning tasviri (chizmasi) bo'yicha geometrik shaklini, kattaligini va fazoda joylashishini fikran tasavvur qila olish qobiliyati ko'zda tutiladi. Umuman *tasavvur* – oldin inson sezgi organlariga ta'sir ko'rsatgan buyumlar va hodisalarning sezish obrazidir. Tasavvur xotira obrazlari va fikran idrok qilishga bo'linadi.

Chizmachilik o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish-da juda katta imkoniyatlarga ega. Fazoviy tasavvur va uni rivojlanishsiz chizmachilik dasturining asosiy mavzularini o'zlashtirish mumkin emas.


Dinamik fazoviy tasavvur deganda tasvirlanayotgan buyum va uning qismlarini boshqa grafik qayta yasashlar, konstruksiyalash va b. lar natijasida shakli yoki fazoviy vaziyatining o'zgarishini tasavvur qila olish qobiliyati tushiniladi.

O'quvchilarning fazoviy tasavvurlavrini shakllantirish va rivoj-lantirish uchun maktabda topshiriq va mashqlarning alohida turlarigina emas, balki ularning yaxlit tizimlari ham qo'llaniladi.


Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. // Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.-Toshkent: Sharq, 1997.
2. .Umumiy o`rta ta`lim maktablarida Chizmachilikta`limi kontseptsiyasi.- Toshkent, 1995.
3. .Tasviriy san`at. Umumiy o`rta ta`limning davlat ta`lim standarti va o`quv dasturi.-Toshkent: Sharq, 1999.
4. Ro`ziev E.I. Geometrik chizmachilik T-2005 yil
5. Ro`ziev E.I. Tutashmalar T-2005 yil
6. Ro`ziev E.I. Muhandislik grafikasini o`qitish metodikasi T-2010 yil
7. Ro`ziev E.I. Geometrik va proeksion chizmachilik-2010 yil
8. .Boymetov B. , Tolipov N. Maktabda Chizmachilikto`garagi. Toshkent, 1995.
9. .Kuzin V.S. Psixologiya.-Moskva: Vo`sshaya shkola, 1982.
10. .Oydinov N. Rassom-o`qituvchilar tayyorlash muammolari. -Toshkent; O`qituvchi, 1997.
11. .Oripov B. Chizmachilikdarslari samaradorligini oshirish omillari. – Toshkent: O`qituvchi, 1978
12. .Hasanov R. Maktabda Chizmachilik mashg`ulotlarini takomillashtirish yo`llari.–Toshkent: O`qituvchi, 1986.
13. Hasanov R. Tasviriy san`atdan davlat ta`lim standartlarini amaliyotga joriy etish.-Toshkent, 2000.
14. Azizxo`jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2006.
15. Daminova M., Adambekova G. O`yin Mashg`ulotlari. 1- sinf. T., 1993.
16. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., 2003.


17. Tolipov U. «Pedagogik texnologiyalar: Nazariya va amaliyot» T., 2003
18. Farberman B.L. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» Toshkent. 2002.
19. Shmakov S.A. Igri uchamixsya – fenomen kulturi. M., 1994.
20. Elkonin D.V. Psixologiya igri. M., 1978.
21. Umumiy urta ta'limning davlat ta'lim standarti va ukuv dasturi.
Chizmachilik, Toshkent; Shark 1999.
22. Xasanov R. Maktabda tasviriy san'atni ukitish metodikasi, Toshkent;
Fan, 2004.
23. Xasanov R. Maktabda Chizmachilik mashg'ulotlarini
takomillashtirish; Toshkent 1986.
24. Isayeva M. Chizmachilikdan topshiriqlar» T. «O'qituvchi». 1992.
25. Yodgorov J. va boshqalar «Chizmachilik» T. «O'qituvchi». 1992.
26. Budasov «Stroitelnoe cherchenie», M. «Prosveshenie». 1990.
27. Rahmonov I.T. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar – T., «O'qituvchi».
1992.
28. Rahmonov I. T. Chizmachilikdan test.- T., «O'qituvchi». 1994.
29. K. Akilova. Narodnoe dekorativno- prikladnoe iskusstvo Uzbekistana XX
vek. Tashkent. 2005 god.
30. S.S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy be'zak san'ati. Toshkent. 1991 yil.




Деталнинг аксанометриясига асосан
униг учта кўринишини бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан
униг учта кўринишини бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан
униг учта кўринишини бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан
униг учта кўринишини бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг аксанометриясига асосан унинг учта кўринишини берилган ўлчам бўйича бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан
унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан
унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан
унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг иккита проекциясига асосан
унинг учинчи кўринишини бажаринг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг




Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг



Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг



Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг



Деталнинг аксанометриясига мос кўринишини топинг